TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY - METODIK JURNALI

PEDAGOGIKA, IQTISODIYOT, FILOLOGIYA

№2 2025-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKSI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY-METODIK JURNALI

№ 2 (2025)

SCIENTIFIC-METODICAL JOURNAL OF TASHKENT ECONOMIC AND PEDAGOGICAL UNIVERSITY

№ 2 (2025)

Toshkent-2025

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY-METODIK JURNALI

TAHRIRIYAT KENGASHI

Tahririyat kengashi raisi	Janikulov Shakarboy Rektor, texnika fanlari nomzodi, professor
Tahririyat kengashi mas'ul kotibi	Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li Ilmiy bo'lim boshlig'i, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahririyat a'zolari

Jabborov Eliboy Jabborovich	iqtisod fanlari doktori, professor
Yakushenko Kseniya Valentinovna	iqtisod fanlari doktori, professor (Belorusiya)
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	iqtisod fanlari nomzodi, professor
Fayziyev Axtam Asrayevich	fizika-matematika fanlari nomozdi, professor
Dusbayev Iso Ramazanovich	qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Selami Fedakar	filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Dadaboyev Hamidulla Aripovich	filologiya fanlari doktori, professor
Mahira Nag'i qizi Huseynova	filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)
Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich	filologiya fanlari doktori, professor
Ibrahimov Elchin Ali o'g'li	filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)
Shaymardonov Tilovmurod Abilayevich	filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jamilova Nargiza Nuritdinovna	pedagogika fanlari doktori, professor
Varnikova Olga Vasilyevna	pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Saparova Gulnaz Kalbayevna	pedagogika fanlari nomzodi, professor
Xalikova Shaxodat Tuxtayevna	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Boboyorov G'aybulla Bolliyevich	tarix fanlari doktori, professor
Toshev Nuryog'di Iskandarovich	tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdul Metin Chelikbilek	tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Turkiya)
Nazarov Nurali Normirzayevich	falsafa fanlari nomzodi, professor

TALABALAR AQLIY TARAQQIYOTIGA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING RIVOJLANTIRUVCHI TA'SIRINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Abdinazarova Zamira Xudaybergenovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753100

ANNOTATSIYA

Maqolada psixologik treninglarning talabalar aqliy taraqqiyotiga rivojlantiruvchi ta'sirining psixologik-pedagogik jihatlari yortib berilgan.

KALIT SO'ZLAR

Pedagogik texnologiya, psixologik trening, motivatsiya, ta'lim mazmuni, psixologik muammo, bilim, malaka, ko'nikma, an'anaviy ta'lim.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрыты психолого-педагогические аспекты развивающего воздействия психологической тренингов подготовки на психическое развитие студентов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Педагогическая технология, психологическая тренинг, мотивация, содержание образования, психологическая проблема, знания, компетентность, умение, традиционное образование.

ABSTRACT

The article examines the influence of pedagogical technologies on students' thinking as a psychological problem, as well as psychologically contradictory aspects of traditional education.

KEYWORDS

Pedagogical technology, psychological training, motivation, educational content, psychological problem, knowledge, competence, skill, traditional education

Kirish. (Introduction) "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Taraqqiyotning

tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu –ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Ertangi kunimiz, vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq" — Shavkat Mirziyoyev.[1]

Ushbu fikrdan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi timsolida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb-hunar malakalarini egallashi asosiy masalalardan biri tariqasida ta’lim jarayonida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’limning samaradorligini amalga oshirishda yuqori ko‘rsatkichli vositalardan biri – bu pedagogik texnologiyalar ekanligi sir emas, albatta ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyotining kirib kelishi - bu zamon (davr) talabidir. Inson psixologiyasi o‘ta ta’sirchan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan, o‘zining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo‘lgan o‘ta murakkab tizim hisoblanadi. Bu holatni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, talabalarning psixik tizimiga shakllantiruvchi, ya’ni ma’lum sifat va yosh xususiyatini rivojlantiruvchi psixologik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Talabalar psixik tizimining markaziy tushunchalaridan biri ularning aqliy salohiyati hisoblanadi. Talabalar aqliy salohiyatini oshirish masalasi ularning qaysi soha yo‘nalishida o‘qishlaridan qat’iy nazar eng muhim masalalardan biridir. Ta’kidlash joizki, talabalar aqliy salohiyatini rivojlantirishda psixologik treninglardan foydalanish ilmiy ishning amaliy qadr-qimmatini oshirib yuboradi.

Tadqiqotning maqsadi. Yuqoridagi holatlar inobatga olingan holda talabalar aqliy taraqqiyotini jadallashtirish maqsadida, ayniqsa, bunday jadallashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda maxsus psixologik-pedagogik trening dasturi ilmiy ishimizning maqsadi deb belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Aqliy taraqqiyot talabalik yosh davrida o‘ziga xos holda sodir bo‘ladi. aniqli psixolog, Leningrad psixologiya maktabining asoschisi B.G.Ananev bu yosh davrini intellektning murakkab tuzilma kasb etish davri, deb baholaydi. Ko‘plab tadqiqotchilar inson taraqqiyotining bu davrini quyidagi sifatlar bilan sifatlaydi: funksional ish qobiliyatining va mahsuldorligining to‘xtovsiz o‘sishi; qandaydir ziddiyatlarsiz progressiv harakat dinamikasining kuzatilishi; ta’limda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan senzitiv davrning mavjudligi; ma’lum psixik funksiyalarning keskin rivojlanishi hisobiga boshqa birlarining stabillashuvi yoki pasayishi va hokazo.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2018 y. –592 b.

B.G.Ananev ko‘rsatmalariga ko‘ra, 18–21 yoshlarda turli xil funksiyalarning (xotira, tafakkur, idrok, diqqat) korreksion pleyadasi zanjirsimon bog‘lanishlarga ega bo‘lsa, 22–25 yoshga kelib bu bog‘lanishlarning murakkab shaxoblangan kompleksi paydo bo‘ladi va bu kompleks asosan ikkita markaz atrofida guruhlashadi–mnemologik (xotiraning yaxlit strukturasi–tafakkur) va attension (diqqat omili). Bu yosh davrida tafakkur bilan xotiraning rivojlanishi yaqin va to‘g‘ridan–to‘g‘ri bo‘lmagan aloqada bo‘ladi. 18–19 yoshda fikriy jarayonlar taraqqiyotining nisbatan turg‘unlashuvi kuzatiladi. 19–24 yoshlarga kelib xotira funksiyalari mantiqiy funksiyalar rivojidan ilgarilab ketadi. Biroq 20, 23, 25 yoshlarda aksincha holat kuzatiladi, ya’ni mantiqiy tafakkur xotiraga nisbatan yuksakroq darajada rivojlanadi. 22 va 26 yoshlarda ikkala funksiyalarda ham susayish kuzatiladi. 30–35 yoshlarda intellekt strukturasida endi uchta yadroning shakllanishi kuzatiladi: mnemologik (xotira), attension (diqqat) va mantiqiy (tafakkur). Attension yadroning mavjudligi shuni ko‘rsatadiki, insonning diqqatini belgilaydigan ongning yo‘nalganligi va to‘planganligi uning intellektual faoliyatining muhim sharti hisoblanadi. 34 – 35 yoshlardan kattaroq yoshlarda tag‘in ikkita yadro saqlanib qoladi, ya’ni mantiqiy va attension yadrolar atrofida qolgan barcha funksiyalar joylashadi.

Shu o‘rinda L.S.Vigotskiyning oliy psixik jarayonlar taraqqiyoti nazariyasini aqliy taraqqiyotga taalluqli bo‘lgan fikrlarini batafsilroq ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Uning shu ma’nodagi ilgari surgan fikrlari pedagogik psixologiya fani uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimning fikricha, aqliy taraqqiyot ikki darajalilik qoidasiga amal qiladi:

1. Aktual taraqqiyot darajasi (talaba mustaqil holda yechishi mumkin bo‘lgan masalalar yordamida aniqlanadigan aqliy taraqqiyotning darajasi bilan xarakterlanadigan tayyorgarlikning mavjud darajasi);

2. Uning yaqin taraqqiyot zonasini aniqlaydigan daraja (bu daraja bolaning kattalar bilan hamkorlik faoliyati davomida amalga oshirilib, intellektual rivojlanish doirasida masalalarni yechish bilan amalga oshiriladi).

Keyinchalik L.S.Vigotskiyning g‘oyalari asosidata’lim mazmuning roli “ilgari ketuvchi” ya’ni rivojlanishdan ilgarilab ketuvchi ta’lim tamoyili ishlab chiqildi. Mazkur tamoyilga ko‘ra, ta’limni samarali tashkil etish shart–sharoitlari sifatida ta’lim oluvchining faolligi aqliy faoliyatni rivojlantirish, o‘zga ta’lim oluvchilar bilan hamkorlikda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirish qaraladi. Bir so‘z bilan aytganda, aqliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish nazarga olingan. Mazkur ta’lim tamoyilining ijodkorlaridan biri L.V.Zankovning ta’kidlashicha, o‘quv materialining nisbatan sekin o‘zlashtirilishi o‘sha material bilan talabaning mustaqil ishlamasligidan, balki tayyor materialni

o‘zlashtirishga majburligidan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, talaba uchun o‘quv materiali ta’lim beruvchining axborotiga emas, balki ta’lim oluvchining axborotiga aylanishi zarur.

Demak, ta’limdagi o‘zgarishlar o‘quv materialini mazmunan chuqurlashtirib o‘rganish, nazariy tahlil, umumlashtirish, talabaning nazariy tafakkurini rivojlantirish yo‘nalishida bo‘lmog‘i zarur.

Shunday qilib, aqliy taraqqiyotning o‘ziga xos psixologik tomonlari va uning ta’lim bilan aloqasi aqliy taraqqiyotning mezonlari bilan bevosita aloqasi bor. Sababi bu masala aqliy taraqqiyotni qanday qilib aniqlashimiz, qanday belgilarga qarab belgilashimiz bilan bog‘liq bo‘lgan masala hisoblanadi. Psixologiya fanida aqliy, intellektual taraqqiyotning mezonlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: tafakkurning mustaqilligi, o‘quv materialini o‘zlashtirishning tezligi va mustahkamligi, nostandart masalalarni yechishda tezlik bilan mo‘ljalni olish, muhimni nomuhimdan ajrata bilish, analitiko–sintetik faoliyatning turli xil darajasi, aqlning tanqidiyligi (N.D.Levitov, N.A.Menchinskaya), shuningdek, umumlashtirishni shakllantirish tezligi, tafakkurning iqtisod qilinganligi (E.I.Kalmikova, V.A.Kruteskiy).

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, inson aqliy taraqqiyotining asosiy mezoni – turli xil tipdagi masalalarni mustaqil, ijodiy yechish ko‘nikmasi hisoblanadi.

Taniqli psixolog olim B.G.Ananev olib borgan tadqiqotlar natijasi o‘laroq intellektning strukturasi, aqliy taraqqiyotning o‘zgarishlari haqidagi ma’lumotlar dunyoga keldi. Ma’lumki, intellektning strukturasi yosh davrlarining barchasida dinamik holda o‘zgarishlarga uchraydi. Bunday o‘zgarishlar shu jumladan talabalik yoshida ham kuzatiladi. Shu o‘zgarishlar asosan mantiqiy tafakkurda, verbal tafakkurda, tushunchali tafakkurda kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma’lumki, trening - “ta’sir” degan ma’noni anglatadi va psixologiya fanida obyektning subyektdagi ma’lum sifat yoki xususiyatlarga ta’siri nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda psixologik trening termini psixologiya amaliyotida qo‘llanilayapti.

Shu o‘rinda fikrimizni aniq tushunish uchun bir muhim masalani oydinlashtirib olishimiz zarur. Bu ham bo‘lsa – “pedagogik texnologiyalar” va “psixologik trening” tushunchalari o‘rtasidagi o‘xshash va farq qiluvchi tomonlarini sharhlash zaruratidir. “Pedagogik texnologiya – oldindan rejalashtirilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayonning amaliyotga uzluksiz singdirilishi” deb sharhlanadi. Ma’lum ma’noda pedagogik texnologiya ham ta’sir hisoblanadi. Faqat bunda ta’lim oluvchining qiziqishlari va motivatsiyasi inobatga olinadi. Ularning tarkibiga tezlashgan ta’lim metodikalari, guruhiy ta’lim metodikalari, ta’lim beruvchi o‘yinlar

va hokazolar kiradi. Pedagogik texnologiyalar ta’lim usullari yordamida ta’lim mazmuni ta’sirini oshirish, ta’lim samaradorligini yuksaltirish singari holatlar bilan bog‘liq. Psixologik treninglar esa ta’sir o‘tkazilayotgan kishining (talabalarning) ma’lum psixologik sifatlariga ma’lum psixologik ta’sir usullari yordamida ta’sir ko‘rsatishdir. E’tibor berilsa, ulardagi mushtarak tomonlar shundaki, ikkala holda ham ta’sir nazarda tutilayapti. Ta’sir natijasida hosil bo‘ladigan holatlarda ham, mexanizmlarda ham (ikkala holda ham asosiy ta’sir motivatsiya orqali amalga oshiriladi) o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi. Biroq farqi shundaki, pedagogik texnologiyalar ta’lim tuzilishiga, uning jarayoniga ma’lum o‘zgarishlar kiritish orqali ta’sir ko‘rsatish bo‘lsa, psixologik treninglar psixik jarayonlarga, holatlarga, xususiyatlarga va tuzilmalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik trening – bu shaxslararo hamkorlik jarayonida modellashtirilgan hayotiy tajribani o‘zlashtirish va anglab yetishga asoslangan faol o‘qitish usulidir. Trening (inglizcha treining so‘zidan olingan bo‘lib, mashq qilmoq degan ma’noni anglatadi) guruh a’zolari o‘rtasida ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan muloqotning bir turi bo‘lib, bu muloqot natijasi o‘laroq guruh a’zolarining psixik tomonlaridan biri shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Bunda psixologik ta’sirning faol usullaridan, ya’ni guruhlararo munozara, bahslar, rolli o‘yinlar va hokazolardan foydalaniladi.

Agar bu ta’rifni sharhlaydigan bo‘lsak, birinchi navbatda shaxslararo hamkorlikdir.

Shunday qilib, “psixologik trening deganda guruhiy ishning faol metodlariga asoslangan psixologik ta’sir amaliyotidir”. Bunda bilimlarni uzatishning maxsus shakllari qo‘llaniladi, muomala, faoliyat, shaxs va tuzatish sohasida ko‘nikmalar va malakalarga o‘rgatiladi.

Lyudmila Ann o‘zining “Psixologicheskiy trening s podrostkami” kitobida psixologik trening haqida yana shunday deb yozadi: “Trening – bu shaxsning o‘zini o‘zi takomillashtirishi uchun maxsus tashkil etilgan ta’lim shakli bo‘lib, uning natijasida quyidagi vazifalar hal tiladi:

ijtimoiy-psixologik bilimlarni egallash;

o‘zini va o‘zgalarni bilish qobiliyatini rivojlantirish;

shaxsiy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarini oshirish; “Men” – konsepsiyasini shakllantirish.[2]

Trening o‘tkazishda psixologning xatti-harakatlari, xulq-atvori muhim rol o‘ynaydi. Bunda psixologning nazariy yo‘nalganligi alohida zarur shart hisoblanadi. Shuning uchun trener-psixologning shaxsi muhim omil hisoblanib, buni inobatga olmasdan trening mashg‘ulotlarini boshlab bo‘lmaydi. Psixologning malakasi,

[2] Анн Л.Ф. Психологический тренинг с подростками. – СПб.:Питер-Пресс, 2008.- 272 с.

tajribasi, qadriyatlar tizimi, shaxsiy sifatlari va hokazolar, tabiiyki, barcha masalalarga, ya’ni treningning tashkil qilinishidan tortib, o‘tkazilishigacha, natijalarning olinishidan tortib to psixologik tahlil qilinishigacha o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Trening guruhlarida rivojlantiruvchi va optimallashtiruvchi ta’sir o‘z o‘zidan ma’lumki faqatgina trening ishtirokchilari o‘rtasida empatiya, samimiyat va ijobiy psixologik muhit yaratilgan taqdirdagina kuzatilishi mumkin.

Psixologning rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatuvchi tajriba eksperiment o‘tkazish vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Talabalarda munosabatlarni, xulq-atvor ustanovkalarini, emotsional-hissiy holatlarini yuzaga chiqarish va natijalarni ular bilan muhokama qilish.

2. Trening guruhida uning har bir a’zosining to‘liq ochilishini ta’minlash, xavfsizlik, o‘z his-tuyg‘ularini yashirmaslik, himoyalanish va qo‘llab-qo‘ltiqlanish muhitini yaratish.

3. Trening guruhida ma’lum psixologik normalarni ishlab chiqish va ma’lum psixologik texnik vositalardan unumli foydalanish imkoniyatini yaratish.

Ma’lumki, trener-psixolog tomonidan foydalaniladigan talabalarga ta’sir qilish vositalari ikki turga bo‘linadi: verbal va noverbal vositalar. Biz quyida ularga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Chunki ularni bilmasdan guruhiy trening o‘tkazib bo‘lmaydi.

1. Verbal ta’sir vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) mashg‘ulot jarayonini tuzish, ya’ni mazkur jarayonning tuzilmasini har bir detalini hisobga olgan holda, hatto psixolog bildirishi kerak bo‘ladigan fikrgacha oldindan ishlab chiqish yoki psixologik pedagogik dastur tuzish;

b) ma’lumotlar yig‘ish, ya’ni tadqiqotning farazini isbotlaydigan (yoki, aksincha, inkor etadigan) ma’lumotlarni olish uchun ma’lum axloqiy va tashkiliy talablarni qondirish;

d) interpretatsiya, ya’ni qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni psixologik tahlildan o‘tkazish va sodir bo‘lgan psixologik hodisaning sabab hamda motivlarini aniqlash;

g) ishontirish va qayta ishontirish, ya’ni talabalarni tadqiqot natijasi o‘laroq ularda aqliy taraqqiyotda ma’lum jonlanish, takomillashishning kuzatilishiga ishontirish (agar ishonchi yo‘qolgudek bo‘lsa, ularni qaytadan ishontirishga harakat qilish);

e) ma’lumotlar berish, ya’ni o‘tkaziladigan psixologik trening shart-sharoitlari bilan til qoidalarini saqlagan va axloqiy normalarga amal qilgan holda talabalarni tanishtirish;

f) topshiriqlarni yetkazish, ya’ni psixolog talaba bajarishi talab qilinadigan topshiriqlarni aniq va puxta yetkazish, yoki ularning aniq va puxta yetkazilishi trening natijasiga bevosita ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

2. Noverbal ta’sir vositalariga esa quyidagilar kiradi: mimika (yuz qiyofasi), jestikulyatsiya (imo-ishoralar), intonatsiya (tovush ohangi) va pantomimika (harakatlar). Psixolog-trener yuqorida zikr qilingan noverbal ta’sir vositalaridan unumli, samarali va bilib foydalanishi zarur.

Shuningdek, u trening guruhini, uning uyushganligini yoki asabiylashganligini doimiy holda nazoratda ushlab turishi zarur.

Biz yuqorida psixologik trening yordamida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish yoki aksincha pedagogik texnologiyalar yordamida psixologik treninglar o‘tkazishning umumiy qonun-qoidalari, talab va shart-sharoitlari to‘g‘risida ma’lum fikrlarimizni ilgari surdik. Endi esa pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishiga mo‘ljallangan psixologik-pedagogik trening dasturidan 2 ta mashg‘ulotni batafsil ko‘rib chiqishga o‘tamiz.

1 – mashg‘ulot - trening

Ushbu mashq-mashg‘ulot talabalarning aqliy taraqqiyotini shakllanishida “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” va “Klaster” metodlarining ahamiyatiga bag‘ishlanadi. Bunda talabalarga ta’limning zamonaviy texnologiyalarining mohiyati haqida tushuncha beriladi.

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodini o‘tkazish tartibi va amalga oshirish bosqichlari bilan tanishtiriladi.

Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko‘rinishda tashkil etiladi.

1) har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyihalari bandlari bo‘yicha umumlashtiriladi:

2) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tamonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi.

“Klaster ” (g‘uncha, bog‘lam) metodi talabalarning erkin fikrlash doirasini kengaytirish orqali bilim saviyasini aniqlash uchun qulay keladi. Strategiyani o‘tkazish qoidalari bilan tanishtiriladi. Metod talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladi. Ilgari surilgan g‘oyalar umumlashtiriladi va yakunlanadi.

Bu mashg‘ulot talabalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda modulli ta’limning pedagogik psixologik xususiyatlari to‘g‘risida bo‘lib, talabalarga

“Modulli ta’lim texnalogiyalarining mohiyati va pedagogik psixologik xususiyalari o‘rgatiladi. Unda quyidagi modullar ko‘rib chiqilgan.

2 – mashg‘ulot - trening

1-modul. Shaxs va jamiyat taraqiyoti uyg‘unligini asoslab bering

2-modul. Talabalarning amaliy faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalarning afzalligini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirish va egallagan bilim, malaka, ko‘nikmalarni baholash.

3–modul. Talabalar o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda ta’lim texnologiyalarining mohiyati.

4-modul. Hamkorlikda o‘qitish va evristik suhbatlar asosida talabalarni demokratik fikrlashga yo‘naltirish omillari.

5-modul. Modulni yakunlash va natijalar bo‘yicha xulosalar chiqarish.

Xulosa va takliflar (Conclusion Recommendations). Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, trener-psixologdan, bir tomondan, guruhdagi har bir talabaga alohida individual yondashishi, unga emotsional-hissiy jihatdan yaqin bo‘lishga intilishi talab qilinsa, ikkinchi tomondan, guruhiy va individual talablarni esdan chiqarmasdan, har bir talabaga joriy etish so‘raladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, pedagogik texnologiyalar yordamida psixologik trening o‘tkazish talabalarda ikki xil effektning paydo bo‘lishiga olib keladi: birinchidan, treningdan ko‘zga tutilgan aqliy taraqqiyotni jadallashtirish effekti bo‘lsa, ikkinchi tomondan, umuman psixologik treninglarda ishtirok etish malakasining oshishi effekti. Ularning ikkalasi ham ijobiy xarakterga ega bo‘lib, oxir-oqibat talabaning shaxsiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Trening mashg‘ulotlarini o‘tkazishda qo‘yidagilarga e’tibor berilsa maqsadga muvofiq bo‘lagdi:

1. Trening o‘tkaziladigan guruhning uyushganligini yoki asabiylashganligini doimiy holda nazoratda ushlab turish.

2. Talabalarning o‘qishga nisbatan qiziqishlarini oshirish, uquv motivatsiyani uyg‘otish uchun ularga pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’limni takomillashtirish, pedagogik texnologiyalarning strukturasi va strategiyasini o‘rganish.

3. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta’sirini o‘rganishda shaxsga oid treninglar asosida ishlab chiqilgan guruhiy treningdan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2018 y. –592 b.

2. Анн Л.Ф. Психологический тренинг с подростками. –СПб.:Питер-Пресс, 2008.-272 с
3. Унт И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. – М., 1990.
4. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1995.-212 с.
5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003.- 192 b.
6. Абдиназарова З.Х “Роль игравой технологии в педагогическом процессе”, Физика ва технология таълими электрон журнали феврал сон №2 Жиззах - 2025.
7. Abdinazarova. Z.Kh The study of the impact of pedagogical technologies on students' thinking as a psychological problem. Science and innovation international scientific journal volume 4 issue 2 february 2025.

ASOSIY STAVKANING TIJORAT BANKLARI KREDITLARI QIYMATINING KO‘RSATKICHI SIFATIDAGI ROLINING USLUBIY JIHATI

Abdullayeva Charos Abdullo qizi
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753210

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Asosiy stavkaning tijorat banklari kreditlari qiymatining ko‘rsatkichi sifatidagi rolining uslubiy jihatini ko‘rib chiqamiz. Markaziy bankning asosiy stavkasini belgilashda turlicha qarashlar mavjud bo‘lib ularning tahlili ko‘rib chiqildi. Asosiy stavka darajasi iqtisodiyotdagi pul massasi hajmi, inflyatsiya darajasi, qarz oluvchilar uchun foiz stavkalari darajasi kabi ko‘rsatkichlarga ta’sir qiladi. Asosiy stavkani aniqlashga yondashuvda ushbu ta’sirni aks ettirish juda muhimdir.

KALIT SO‘ZLAR

Markaziy bank, markazlashgan bank, tijorat banklari, kredit, asosiy stavka, hisob stavkasi, chegirma stavka, inflyatsiya darajasi, pul massasi hajmi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье мы рассматриваем методологический аспект роли базовой ставки как индикатора стоимости кредитов коммерческих банков. Существуют разные взгляды на установление ставки центрального банка, и был рассмотрен их анализ. Уровень основной ставки влияет на такие показатели, как размер денежной массы в экономике, уровень инфляции, уровень процентных ставок для заемщиков. Важно отразить этот эффект в подходе к определению базовой ставки.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Центральный банк, централизованный банк, коммерческие банки, кредит, основная ставка, учетная ставка, учетная ставка, уровень инфляции, объем денежной массы.

ABSTRACT

KEYWORDS

In this article, we consider the methodological aspect of the role of the prime rate as an indicator of the value of commercial bank loans. There are different views on setting the central bank rate, and their analysis was considered. The level of the main rate affects indicators such as the size of the money supply in the economy, the level of inflation, and the level of interest rates for borrowers. It is important to reflect this effect in the approach to determining the base rate.

Central bank, centralized bank, commercial banks, credit, prime rate, discount rate, discount rate, inflation rate, money supply volume.

Mamlakatimiz uchun O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini kuchli iqtisodiy o‘sish yo‘liga olib chiqishga qodir bo‘lgan yangi iqtisodiy modelni tanlash masalasi juda dolzarbdir. Shu bilan birga, har qanday uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy rivojlanish moliya bozorida faoliyat yurituvchi jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirishning samarali modelisiz tasavvur qilish mumkin emas.Ushbu almashinuv jarayonlarini amalga oshirishda tijorat banklari asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Ushbu jarayonda pul-kredit siyosatini boshqarishda Markaziy bankning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bu siyosatini amalga oshirish uchun Markaziy bank turli xil vositalardan foydalanadi. Ulardan biri pul-kredit siyosatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan asosiy stavka darajasini o‘zgartirish vositasidir. Asosiy stavka darajasining qarz mablag‘lari qiymatiga ta’siri jamg‘armalarni investitsiyalarga muvaffaqiyatli aylantirishning eng muhim omili bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun zarurdir. Kredit resurslari qiymatining bozorini tartibga solish O‘zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o‘sishni shakllantirish uchun asos bo‘lgan inflyatsiyani tartibga solish siyosatining asosiy qismlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishning dolzarbligi kredit resurslari qiymatiga bozor iqtisodiyotiga ta’siri orqali jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirishni amalga oshirishdan iqtisodiyotga ijobiy ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun asosiy stavka darajasini o‘zgartirish vositasidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tizimli va ilmiy takliflarni ishlab chiqish zarurati bilan bog‘liq.

Asosiy stavkaning tijorat banklari kreditlari qiymatining ko‘rsatkichi sifatidagi rolining uslubiy jihatini ko‘rib chiqamiz.

Turli mamlakatlarda Markaziy banklarning paydo bo‘lish tarixi o‘xshashdir. Dastlab, pul emissiyasini tashkil qilish funksiyasi bir nechta yirik bank tuzilmalariga yuklangan.

Keyinchalik, bu funksiya emissiya markazi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini kreditlash funksiyalarini birlashtirgan ma’lum bir mamlakatning asosiy, odatda eng yirik bankiga yuklangan. Vaqt o‘tishi bilan ushbu turdagi banklarga zamonaviy tartibga solish funksiyalari qo‘shiladi.

Ba’zi istisnolar mavjud, masalan, Federal zaxira tizimi dastlab 1913-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarining Markaziy banki sifatida yaratilgan. Biroq, 1791-yilda tashkil etilgan AQSHning Birinchi banki va 1816-yilda tashkil etilgan Ikkinchi banki 1913-yilgacha AQSH Markaziy banki rolini bajarib kelgan.

Dastlab, aksariyat Markaziy banklar aksiyadorlik banklari edi. Keyinchalik, 20-asrning o‘rtalarida ularning aksariyati milliylashtirildi. Birinchi Markaziy banklar Angliya, Germaniya, Shvetsiya, Fransiya va Ispaniyada tashkil topgan. Asosiy banklarning markaziy banklar sifatida ajratilishi bilan ikki bosqichli bank tizimi shakllana boshladi.

Zamonaviy Markaziy banklar davlat organlaridan ma’lum darajada mustaqilligi bilan ajralib turadi. Biroq, bu mustaqillik darajasi mamlakatdan mamlakatga farq qiladi. Ayrim mamlakatlarda Markaziy banklar pul-kredit siyosatini mamlakat Moliya vazirligi va boshqa davlat organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Buning yorqin misoli — Angliya banki. Boshqa mamlakatlarda, masalan, Germaniyada Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirib, Moliya vazirligining agenti sifatida ishlaydi va u davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Bank tizimida asosiy yoki markazlashgan bankning ajralib chiqishi, shuningdek, bank faoliyatini tartibga solishning rivojlanishi bilan bank tizimining iqtisodiyotdagi roli hal qiluvchi omillardan biri ekanligi aniqlandi. Iqtisodiyotning sog‘lomligi umuman bank tizimining holatiga bog‘liq. Bank ishi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi pul muomalasining muhim vositasichi hisoblanadi.

Shunday qilib, bank tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun Markaziy bankning bank tizimini tartibga soluvchi va zarurat tug‘ilganda oxirgi instansiya kreditori sifatidagi roli nihoyatda muhim va ko‘pincha hal qiluvchi hisoblanadi.

Bank sektorida likvidlik inqirozi yuzaga kelgan taqdirda, markaziy bank alohida banklarni tezda qo‘shimcha moliyalashtirishi mumkin. Albatta, markaziy bank qo‘shimcha moliyalashtirishni taqdim etganda, ushbu operatsiya uchun foizlarni oladi. Bu holda, Markaziy bankning foiz stavkasi, odatda, hisob stavkasi yoki asosiy stavka deb ataladi.

Markaziy bankning asosiy stavkasini belgilashda turlicha qarashlar mavjud. Masalan, professor B.A. Raizberg[3] tomonidan tahrir qilingan “Zamonaviy iqtisodiy

[3] B.A.Raizberg, L.Sh. Lazovskiy, Y.B.Starodubsevo ”Zamonaviy iqtisodiy lug‘at” “НИЦ ИНФРА-М”. 2024. 512 b.

lug‘at”da Chegirma stavkasi, diskont foiz stavkasiga shunday ta’rif beradi: “1) Federal rezerv tizimi, markaziy bank tijorat banklariga naqd pul zaxiralarini to‘ldirish va mijozlarga kredit berish uchun kredit beradigan foiz stavkasi. Markaziy bank asosiy stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, tijorat banklari o‘zlari taqdim etgan kredit uchun foiz stavkasi shunchalik yuqori bo‘ladi yoki aksincha;

2) banklar veksellarni diskontlash stavkasi, asosiy stavkasi”. A.G.Kulikov[4] tomonidan tahrirlangan "Pul, kredit, banklar" darsligida. ta’kidlaydi: “Rossiya banki o‘z operatsiyalari bo‘yicha stavkalarni (qayta moliyalash stavkalarini) belgilash va o‘zgartirish orqali pul massasi hajmiga ta’sir qilishi mumkin.”

Qayta moliyalash stavkasining o‘zgarishi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga taqdim etiladigan qo‘shimcha kredit resurslari narxining o‘zgarishini anglatadi.

Shu munosabat bilan shuni yodda tutish kerakki, terminologik jihatdan Markaziy bank bank tizimini qayta moliyalashda foiz stavkasini boshqacha belgilanishi mumkin.

Hozirgi vaqtda bu stavka asosiy stavka deb ataladi. Shu bilan birga, AQSHda Federal rezerv tizimining asosiy stavkasi asosiy stavka deb ataladi. Maqolada Markaziy bankning asosiy stavkasining ma’no va mohiyatini aks ettirish, qanday va qaysi vaqtda atalganiga katta ahamiyat bermasdan, uning o‘z ta’rifini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Mohiyat haqida gapirganda, biz, birinchi navbatda, muayyan hodisaning ma’nosini va uning o‘zi boshqa hodisalardan farqli ravishda nimani ifodalashini tushunamiz. Bunday tushunishda Markaziy bankning asosiy stavkasining mohiyati shundan iboratki, u bank tizimi uchun pul resursining qiymatidir.

Uning boshqa pul bozori foiz stavkalaridan farqi shundaki, bu stavka, bir tomondan, Markaziy bank pullarining sotiladigan bahosi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mamlakat pul bozorining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining bir qator makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Asosiy stavkani qo‘llashning iqtisodiy amaliyotini hisobga olgan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy stavkani o‘zgartirish mamlakat iqtisodiyotini pul-kredit tizimini tartibga solishning samarali vositasidir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Asosiy stavkasini nazorat qilishning muhimligi haqidagi maqolaning muhimligini tasdiqlovchi bir qator milliy banklar rahbarlarining (xususan, 18 yil davomida AQSH Federal zaxira tizimi raisi bo‘lib ishlagan Alan Greenspan) e’lon qilingan dalillarni misol keltirishimiz mumkin.

[4] A.G.Kulikov. “Pul,kredit,banklar” darslik. Moskva.:“Knorus” 2009. 655 b.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan iqtisodiy siyosatga muvofiq, ya’ni inflyatsiyani tartibga solish kontekstida, ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek (xususan, Oliy Iqtisodiyot maktabidan O.S. Kuznetsova[5]), Markaziy bank asosiy stavkada bo‘lajak o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun oqilona va tushunarli mezonni tanladi — bu inflyatsiya risklaridir.

Yuqoridagilar nafaqat Markaziy bankning asosiy stavkasini o‘zgartirish bo‘yicha puxta o‘ylangan siyosatning muhimligini tasdiqlaydi, balki asosiy stavkaning qator makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sir qilish darajasini ham ko‘rsatadi.

O‘rganilgan materialga asoslanib, Markaziy bankning asosiy stavkasini aniqlashga yondashuvni ishlab chiqish zarurdir. Markaziy bankning asosiy stavkasi tijorat banklari uchun qarz resurslari qiymatining foizli ifodasidir, shoshilinch resurslarni moliyalashtirish narxining minimal darajasini aks ettiradi va mamlakat iqtisodiyotiga makroiqtisodiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’rifga bunday yondashuv asosiy stavkaning bir qator muhim xususiyatlarini va mohiyatini, uning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini aks ettiradi. Ushbu ta’rifdan shuni tushunishimiz mumkinki, asosiy stavka doimo foizlarda ifodalanadi va tijorat banklari tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar uchun to‘lov vositasi hisoblanadi.

Markaziy bank tijorat banklari uchun so‘nggi instansiya kreditori bo‘lganligi sababli, ta’rifda asosiy stavka moliyalashtirish bahosining eng kam darajasi sifatida belgilangan (talab qilingan hisobvaraqlardagi mablag‘lar uchun minimal moliyalashtirish bahosi tushuniladi, shuning uchun gap shoshilinch resurslar haqida ketmoqda).

Shuni ta’kidlash lozimki, asosiy stavka o‘zgarishining mamlakat iqtisodiyotiga makroiqtisodiy ta’sirini ham ifodalaydi.

Ushbu yondashuv Markaziy bankning asosiy stavkasining mohiyatini ham keng aks ettiradi. Bir tomondan, asosiy stavka tijorat banklari uchun qarz resurslarining narxi hisoblanadi. Boshqa tomondan, bu ko‘rsatkichning makroiqtisodiy mohiyatini aks ettiradi. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bankning asosiy stavkasi uzoq vaqtdan beri ko‘pgina manbalar belgilaganidek, tijorat banklari uchun resurs bahosi bo‘lib qolmay, balki ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning xatti-harakatlari uchun muhim ko‘rsatma bo‘lib kelgan.

Asosiy stavka darajasi iqtisodiyotdagi pul massasi hajmi, inflyatsiya darajasi, qarz oluvchilar uchun foiz stavkalari darajasi kabi ko‘rsatkichlarga ta’sir qiladi.

[5] Kuznetsova O., Ulyanova S. The Impact of a Central Bank’S Verbal Interventions on Stock Exchange Indices in a Resource Based Economy: The Evidence from Russia / NRU Higher School of Economics. Series WP BRP "Economics/EC". 2016. No. 155.

Shunday qilib, asosiy stavkani aniqlashga yondashuvda ushbu ta’sirni aks ettirish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.A.Raizberg, L.Sh. Lazovskiy, Y.B.Starodubsevo ”Zamonaviy iqtisodiy lug‘at” “НИЦ ИНФРА-М”. 2024. 512 b.
2. A.G.Kulikov. “Pul,kredit,banklar” darslik. Moskva.:“Knorus” 2009. 655 b.
3. Kuznetsova O., Ulyanova S. The Impact of a Central Bank’S Verbal Interventions on Stock Exchange Indices in a Resource Based Economy: The Evidence from Russia / NRU Higher School of Economics. Series WP BRP "Economics/EC". 2016. No. 155.
4. S.N.Slavin. “Ключевая ставка как инструмент регулирования стоимости кредитных ресурсов в РФ” Sank Peterburg-2022. 141 b.
5. www.cb.uz
6. www.stat.uz

QISHLOQ XO‘JALIGI MAXSULOTLARINI ETISHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO‘LLARINING STATISTIK TAHLILI

Abdurayimov Kamollidin Xurram o‘g‘li
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Iqtisod” kafedrasi o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753228

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va uni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida olib borilayotgan islohatlar bilan solishtirish, xorijiy mamlakatlar tajribalaridan bizning mintalitetimizga xos bo‘lgan jihatlarini o‘zlashtirib olishga e’tibor qaratilgan. Ayniqsa dunyo qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida etakchi o‘rinlarni egallab kelayotgan Xitoy, Niderlandiya, Rossiya kabi mamlakatlar tajribalarini o‘rganish qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohatlarni yanada mukammalroq va maqsadliroq bo‘lishiga xizmat qilishiga ahamiyat berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, yer islohoti, Xitoy, Niderlandiya, Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina mamlakatlari qishloq xo‘jaligi islohoti, import, eksport, model, integratsiya, agrar sektor.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется изучению опыта зарубежных стран в аграрном секторе и сравнению его с реформами, проводимыми в аграрном секторе нашей страны, а также заимствованию аспектов, характерных для нашего менталитета, из опыта зарубежных стран. В частности, большое значение придается изучению опыта таких стран, как Китай, Нидерланды, Россия, являющихся ведущими экспортерами сельскохозяйственной продукции в мире, с целью сделать проводимые в сельском

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

сельское хозяйство, фермерство, животноводство, земельная реформа, аграрная реформа в Китае, Нидерландах, России, Казахстане, Украине, импорт, экспорт, модель, интеграция, аграрный сектор.

хозяйстве реформы более совершенными и целенаправленными.

ABSTRACT

This article focuses on studying the experience of foreign countries in the agricultural sector and comparing it with the reforms carried out in the agricultural sector of our country, as well as borrowing aspects characteristic of our mentality from the experience of foreign countries. In particular, great importance is attached to studying the experience of such countries as China, the Netherlands, Russia, which are the leading exporters of agricultural products in the world, in order to make the reforms carried out in agriculture more perfect and targeted.

KEYWORDS

agriculture, farming, livestock farming, land reform, agrarian reform in China, the Netherlands, Russia, Kazakhstan, Ukraine, import, export, model, integration, agricultural sector.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo‘nalishlari, raqamli texnologiyalarga asoslangan “Qishloq xo‘jaligi-4,0” va “Aqlli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyalarini rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlanib dunyo iqtisodiyotida (va ayniqsa qishloq xo‘jaligida) o‘zining mustahkam o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lgan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va ularni o‘zimizda tadqiq etish, avtomatlashtirilgan raqamli texnologiyalarni qo‘llashga asoslangan qishloq xo‘jaligi majmui boshqaruvida raqamlashtirilgan texnologiyalar”, “aniq dehqonchilik”, “aqlli bog‘”, “aqlli issiqxona” va “aqlli chorva fermasi” kabi innovatsion usullarni joriy etishni o‘rganish, qishloq xo‘jaligida raqamli agrotexnologiyalarni joriy etilishi borasidagi mavjud muammolar, ularga ta'sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Shuningdek,dunyoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishda etakchi bo‘lib hisoblanadigan Xitoy Xalq Respublikasining 1978-yilgi qishloq xo'jaligidagi islohotlarning Xitoy taraqqiyotida tub burilish yasagan muhim tarixiy davr hisoblanishi, rahbariyatning “ochilish va tuzilmalar” siyosati e'lon qilinishi kabi jihatlariga, Niderlandiyaning qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlari, qonunchilik asoslari va natijalariga hamda MDH respublikalaridan Rossiya, Ukrayina va Qozog’stonning qishloq xo‘jaligida amalga oshirgan islohotlariga, qonunchilik asoslari va natijalariga ham to‘xtalib o‘tishga harakat qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xitoy Xalq Respublikasining qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlari tajribasiga asosan iqtisodyotining o‘sishi aynan qishloq xo‘jaligidan boshlangan. Xitoyning bu boradagi tajribasidan biz ham rivojlanish uchun andoza olsak bo‘ladi.

Xitoy Xalq Respublikasida (1949 yilda hokimiyatga kelgan Mao Tszedun tomonidan birlashtirildi) yerlar boy zamindorlardan tortib olinib, 300 million dehqonga bo‘lib berildi, sanoatlashish darajasi biroz o‘sdi, xalqning turmush tarzida ijobiy tomonga siljish bo‘ldi. Biroq, 1952 yildan boshlab xalqning ustidan birin-ketin o‘tkazilgan kommunistik iqtisodiy tajribalar iqtisodiy inqirozga va oxir-oqibat ommaviy ocharchilikka olib keldi. Xususiy mulkchilikka qarshi kurashish jarayonida oilalardan hatto kichkina tomorqalar va oddiy hunarmandchilik dastgohlari tortib olindi, xususiy tartibda oziq-ovqat maxsulotlari ishlab-chiqarish man etildi[1].

Xitoy iqtisodiyoti 1978 yilda boshlangan islohotlardan beri sezilarli o‘sishni boshdan kechirdi(FDI), va bir qator keyingi siyosiy tashabbuslar bilan oldinga surildi. Ya'ni mamlakatda (1979 yilda) «Islohot va ochiqlik siyosati» e'lon qilindi[2].

Ushbu islohatning asosiy mazmuni uy xo‘jaligi (jamoa shaklida faoliyat yuritayotgan) yerlarni yakka tartibdagi uy xo‘jaliklariga qayta taqsimlash hisoblanadi va natijada islohot fermerlar sonining oshishiga olib keldi hamda qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini taxminan 50 foizga oshirdi.

Niderlandiya qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini eksport qilish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Uning eksport hajmi bo‘yicha gullar, sabzavotlar va mevalar dunyoda birinchi o‘rinda turadi; Sut maxsulotlari eksporti faqat Germaniya va Yangi Zelandiyadan keyin ikkinchi, dunyoda uchinchi o‘rinda turadi; Hayvon va o‘simlik moyining eksport reytingi Xitoy va Hindistondan keyin ikkinchi o‘rinda, shuningdek dunyoda uchinchi o‘rinda turadi; Go‘sht eksporti dunyoda AQSh, Braziliya va Germaniyadan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi. 2020-yildan beri Niderlandiyadan qishloq xo‘jaligi maxsulotlari eksporti qiymati doimiy ravishda 100 milliard dollardan oshib, jahonda ikkinchi o‘rinni saqlab qoldi[3].

Qozog'iston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlar jarayoni boshlandi. Mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini strategik tarmoq orqali yetkazib berish, ta'minlash, eksportni sanoat mahsuloti hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda qishloq xo'jaligining ahamiyatini oshirib borish asosiy vazifalardan biri edi[5].

Ukraina - Yevropadagi eng yirik qishloq xo'jaligiga ega mamlakatlardan biri bo'lib, "Yevropaning non savati" sifatida tanilgan. Mustaqillik (1991) yillaridan

so'ng Ukraina qishloq xo'jaligi iqtisodiy tub o'zgarishlarga duch keldi. Davlat mulkchiligidan xususiy sektor tomon keng ko'lamli islohotlar olib borildi[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, kuzatish, solishtirish, tanlash, umumlashtirish, dinamik o'zgarishni aniqlash, makroiqtisodiy ma'lumotlarni taxlil qilish, induktsiya va deduktsiya, klassifikasiyalash, algoritmlashtirish, dasturlash, qiyosiy taqqoslash va ekspert baholash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizdagi kabi Xitoyda ham qishloq xo'jaligi tizimda barcha ishlab chiqarish davlat yoki jamoa mulk hisoblangan. Ishlab chiqarish va fermerlarning individual tashabbuslari deyarliyoq edi. 1960–70-yillarda ishlab chiqarish hajmi yetarlicha o'sish sur'atini ko'rsatmadi, oziq-ovqat tanqisligi va qishloq aholisi kambag'alligi keskin oshib ketdi.

1978 yilning dekabr oyida Xitoyning Anxuey viloyatidagi Syaogang nomli qishloqda (21ta oila) qishloq faollari tajriba o'tkazishadi: yani jamoa bo'lib ishlatilayotgan umumiy yerlarni o'sha 21 oilaga bo'lib berishga qaror qilishadi. Kichkina qishloqda o'tkazilgan mazkur islohot yaxshi natija beradi.

1978 yilgi ushbu islohatning qishloq xo'jaligidagi eng muhim elementi - "uy xo'jalik ishlab chiqarish" tizimi edi. Bu tizimga ko'ra, yerlar hali ham davlat mulki bo'lib qolganiga qaramay, ular uzoq muddatli ijaraga (avval u boshida 1yildan 3 yil,keyinchalik 30 yillik) fermerlarga topshirildi. Endi har bir uy xo'jaliklari o'z joyi uchun mas'ul bo'lib, hosilni yig'ib olish, mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ldi. Natijada fermerlar o'z ishining samaradorligini oshirdi, bu esa hosildorlik darajasini ko'paytirdi. 1978–1984-yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 30% dan ortiqroq o'sdi.Fermerlar daromadi ikki baravarga ortdi, kambag'allik darajasi keskin pasaydi. Oziq-ovqat ta'minoti muammosi qisqa vaqt ichida bartaraf etildi va Xitoy qishloq xo'jaligining innovatsion asoslarda qurilishga poydevor bo'lib xizmat qildi.1981 yilga kelib, 98 foiz ekin yerlari dehqon oilalari tasarrufida edi. Xitoy Konstitutsiyasida fuqarolarning xususiy mulkchilik huquqlari biriktirildi, bu ham qishloqlarda xususiy tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi omil bo'ldi[1].

Xitoyda 1978-yilgi iqtisodiy jarayonlardan so'ng iqtisodiy erkin va ishlab chiqarish jarayonlari asosida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha bir nechta modellarning natijalari kuzatildi. Ushbu modellar va mexanizmlar mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini ta'minlash, fermerlar daromadini, innovatsiyalarni joriy qilish va qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilishda muhim omil bo'ldi[2]:

1. “Ikkita bozor – ikki narx” modeli - bu model Xitoyda o'tish davrida keng qo'llanilgan bo'lib, unda davlat va bozor tizimi parallel faoliyat yuritadi. Yani davlat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini strategik ahamiyatga ega boʻlgan mahsulotlar masalan (g'alla, paxta) oʻzi belgilagan narxlarida xarid qildi va shu bilan birga, fermerlar o'z mahsulotlarini yetishtirish, erkin bozorda sotish huquqiga ega bo'ldi. Bu davlatning oziq-ovqat mahsulotlarini kafolatlab, bir boshqaruvning o'zida bozorni nazoratda saqlashga ham xizmat qildi;

2. Uy xo'jaligiga asoslangan ishlab chiqarish modeli - fermerlar mustaqil ishlab chiqarish, boshqaruv va qarorlar qabul qilish xuquqiga ega bo'ldi. Yani maxsuldorlik oshirildi, fermerlar orasida innovatsiyalarga yordamni koʻpaytirdi va kichik fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga zamin yaratildi;

3. Fermer kooperatsiyasi va klaster modeli - 2000-yillardan Xitoy hukumati kichik fermerlarni birlashtirish tizimini yoʻlga qoʻydi, fermerlar kooperativlarini tashkil qildi, Agro-klasterlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, qayta ishlash, saqlash va eksport qilishni birlashtirgan tizimlar)ni rivojlantirdi. Bu model resurslardan samarali ishlab chiqarish, texnologiyani joriy qilish va eksportning ortishiga xizmat qildi;

4. Qishloq sanoatlashtirish modeli - Xitoyda “sanoat + qishloq xoʻjaligi” integratsiyasi asosida, fermerlar, qayta ishlovchi kuch va logistika kompaniyalari o'zaro hamkorlikda ishlay boshladi. “Ferma-zavod-brend” zanjiri orqali mahsulot hajmi ortdi. Qishloq xo'jaligi innovatsion biznesga aylandi;

5. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish - so'nggi vaqtda Xitoy qishloq xoʻjaligi yo'nalishida innovatsion loyihalarni qo'llamoqda, aqlli qishloq xo'jaligi (Smart Agriculture) – dronlar, IoT jihozi, sun'iy intellekt orqali yer nazorati va hosil monitoringgi olib borilmoqda.Biotexnologiyalar – genetik modifikatsiya orqali yuqori hosilli navlarni olish. Raqamli agroxizmatlar – mobil ilovalar orqali kredit, sug'urta va texnik maslahat xizmatlari yoʻlga qoʻyilgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yaxshilash uchun keng asos yaratish uchun Xitoy hukumati bir qator normativ-huquqiy bazani shakllantirgan. Ushbu normativ-huquqiy bazaning asosiy maqsadi yer resurslaridan foydalanish, fermerlarning huquqlarini himoya qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va inklyuziv boshqaruv modelini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir:

1. Yerga egalik va yurgizish qonunchiligi - Xitoyda yer davlat mulki. Qishloq xo'jaligi yerlari uzoq muddatli ijara asosida fermerlar ixtiyoriga topshirildi. 2002-yilgi "Yer egaligini tartibga solish qonuni"ga tuzatmalar kiritildi: Fermerlarga yerni 30 yillik ijaraga olish huquqi berildi.Yerga egalik orqali yerni ijaraga berish va ijaraga olish mumkin boldi. "Fermerlarning yerga bo'lgan huquqlarini himoya qilish

to'g'risida qonun" (2007). Yer ijarasi, meros qilib qoldirish va sug'urtalash huquqlari kafolatlandi.Yerni shaxsiy musodara qilish joylarining oldi olindi;

2. Qishloq xo'jaligini tartibga soluvchi qonunlar - Xitoy hukumati agrar sohani rivojlantirishda davlat aralashuvini tartibga solvchi muhim qonunlarni tuzdi, yani "Qishloq xo'jaligi to'g'risida qonun" (2004), Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash davlat strategiyasi sifatida belgilandi, Subsidiyalar, texnik yordam va ilmiy manbalar uchun davlat mablag'lari ajratilishi ishlab chiqildi."Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida qonun" (2010), Yo'l, sug'orish tizimlari, elektr ta'minoti kabinetlarini yaxshilashga, infratuzilmalarni yaratishga imkon berdi. Hukumat har bir viloyat bo'yicha alohida investitsiya rejalarini ishlab chiqardi.

3. Fermer xo'jaliklari va kooperatsiyalarni qo'llab-quvvatlash - "Fermerlar kooperativlari to'g'risida qonun" (2007). Kichik ishlab chiqarish birlashib, texnika, malaka oshirish va marketing bo'yicha hamkorlik qilish uchun huquqiy baza yaratildi. "Agrobiznesni rag'batlantirish huquqi to'g'risida qonun" (2015). Qishloq xo'jaligida startaplar, innovatsion texnologiyalar va elektron tijorat platformalarini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari va grantlar belgilandi.

qo‘y, echki, son, mavsumiy, diskret, tasodifiy, dinamik, statistik, baholash, nuqta, interval, trend, avtokorrelyatsiya, yakuniy farq, mezon, me’yor, gipoteza, kafolat.

АННОТАЦИЯ

В статье статистически проанализировано количества овец и коз, выращенных в республике Узбекистан в 2011-2023 годах $\{Y_t, t \in T\}$ (в тысячах единиц, по данным УзСтат) как устойчивый динамический ряд, причем с

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

овца, коза, численность, сезонная, дискретная, случайная, динамическая, статистическая, оценка, точка, интервал, тренд, автокорреляция, конечная

95% гаранте построена точечно-интервальная статистическая оценка.

$\bar{y}_t$ – для годового среднего количества овец и коз. Выявлена част тренда, характеризующего основной развития данного процесса, оценены участвующие в нем неизвестные параметры методом наименьших квадратов на основе статистических данных и спрогнозированы количества овец и коз на ближайшие годы. С помощью статистических критериев проверена статистическая гипотеза о наличии автокорреляционной связи этого процесса и сделаны теоретические и практические выводы.

разность, критерий, норма, гипотеза, гарантия.

ABSTRACT

The article statistically analyzes the number of sheep and goats raised in the Republic of Uzbekistan in 2011-2023 {Y_t, $t \in T$} (in thousands of units, according to UzSTAT) as a stable dynamic series, and with a 95% guarantee, a point-interval statistical estimate is constructed $\bar{y}_t$ – for the annual average number of sheep and goats. A part of the trend characterizing the main development of this process is revealed, the unknown parameters involved in it are estimated by the least squares method based on statistical data and the number of sheep and goats for the coming years is predicted. Using statistical criteria, the statistical hypothesis about the presence of autocorrelation of this process is tested and theoretical and practical conclusions are made.

KEYWORDS

sheep, goat, number, seasonal, discrete, random, dynamic, statistical, assessment, point, interval, trend, autocorrelation, finite difference, criterion, norm, hypothesis, guarantee.

Быстрый рост населения нашей республики в сочетании с ограниченностью земельных, водных и других ресурсов для полноценного обеспечения его продовольствием создают трудности. Достичь этих целей

можно только используя самые современные научные достижения и технологии в этой области, а также поддерживая производство.

Поскольку процесс производства мяса носит сезонный характер, мы изучаем его как дискретный динамический ряд {u_t,t∈T}. Из теоретических исследований динамических рядов [1]-[5] известно, что {u_t,t∈T} может в основном состоять из следующих компонентов: 1) тренда, указывающего основное направление изучаемого случайного процесса, 2) части, колеблющейся вокруг тренда, 3) части, подверженной сезонным изменениям, 4) случайной части. Для решения этих задач используются скользящие средние, конечные разности, наименьшие квадраты, автокорреляция, проверка статистических гипотез для различных динамических рядов и другие методы анализа, которые широко применяются при анализе динамических рядов. В данной статье рассматривается поголовье овец и коз, разводимых в Республике Узбекистан в 2011-2023 годах, как стационарный дискретный динамический ряд.

На сегодняшний день существует множество научных работ и литературы, посвященных гарантированному изучению и анализу динамических рядов, в частности: Андерсон [1], Кендал [2], Тихомиров [3], Сулаймонов [4], Файзиев [5] и др.


Материалы и методы. В статье статистически проанализировано 13-летнее среднее поголовье овец и коз, разводимых в Узбекистане в 2011-2023 гг. {u_t,t∈T}, как стационарный динамический ряд, построены точечные, гарантированные интервальные статистические оценки его истинного среднегодового 〖 y〗 _T-, а также проверены различные статистические гипотезы, связанные с этим процессом, с использованием представленных выше методов.

Для определения тренда {u_t,t∈T} динамики поголовья овец и коз, выращиваемых в нашей республике в 2011-2023 гг., используя геометрическую интерпретацию экспериментальных данных в системе координат, можно предположить, что он имеет линейную зависимость u_t y (см. рисунок 1).


Неизвестные параметры, входящие в линейную модель, определяются с использованием статистических данных, методом наименьших квадратов, путем решения следующей системы нормальных уравнений:

$$\begin{cases} a_0 T + a_1 \sum t = \sum y_t \\ a_0 \sum t + a_1 \sum t^2 = \sum y_t t \end{cases} \quad (1)$$

Для оценки решений системы (1) построим вспомогательную таблицу на основе статистических данных (Таблица-1):



a)



b)

1-рисунок.

Таблица-1

1	2	3	4	5	6	7
N р/р	Наблюдаемые годы	y_t - тысяч штук	t	t^2	$y_t\, t$	$y_t\, t^2$
1	2011	16 189,0	-6	36	-97 134	582 804
2	2012	17 128,8	-5	25	-85 644	428 220
3	2013	17 717,6	-4	16	-70 870	283 482
4	2014	18 438,9	-3	9	-55 317	165 950
5	2015	19 118,8	-2	4	-38 238	76 475
6	2016	20 256,4	-1	1	-20 256	20 256
7	2017	20 640,9	0	0	0	0
8	2018	21 580,5	1	1	21 581	21 581
9	2019	21 906,9	2	4	43 814	87 628

10	2020	22 458,8	3	9	67 376	202 129
11	2021	22 970,3	4	16	91 881	367 525
12	2022	23 602,5	5	25	118 013	590 063
13	2023	24 072,4	6	36	144 434	866 606
Σ		266 082	0	182	119 640	3 692 718

Используя расчеты, приведенные в таблице, определяем неизвестные параметры, входящие в линейную зависимость (1), решая систему уравнений методом наименьших квадратов:

$$\sum y_t = 266082,0\ ,\ a_0 = \frac{1}{T}\sum y_t = \frac{266082}{13} = 20467,85,$$

$$a_1 = \frac{119640}{182} = 657,36.$$

На основе статистического анализа среднего поголовья овец и коз, разводимых в нашей республике в 2011-2023 гг., как дискретного, стационарного (стационарного) динамического ряда {u_t,t∈T}, получаем следующее уравнение для трендовой части, выражающее ее основное направление по отношению к годам t:

$$y(t) = 657,36\,t + 20467,85 \qquad (2)$$

Присвоив этому уравнению тренда значение t=0, определяем, что среднегодовое поголовье овец и коз в нашей республике составляет 20 467 850 голов. Аналогично, установив значение t = 1 в уравнении тренда, мы с 95% гарантией определяем, что среднее поголовье овец и коз в нашей республике в 2024 году составит 21 125 000.

Коэффициент автокорреляции важен при изучении свойств динамического ряда. Чтобы ответить на этот вопрос, мы рассчитаем следующие величины, используя метод конечных разностей, предполагая временной лаг в L лет (L-лаг) (Таблица 2)

$$\Delta Y_t = Y_{t+1} - Y_t, \quad \Delta^2 Y_t = \Delta Y_{t+1} - \Delta Y_t,\ \Delta^3 Y_t = \Delta^2 Y_{t+1} - \Delta^2 Y_t.$$

Составим таблицу для расчета конечных разностей (Таблица-2):

Таблица -2

1	2	3	4	5	6	7	8
N	Наблюдаемые годы	y_t - тысяч штук	Y_t^2	ΔY_t	ΔY_t^2	$\Delta^2 Y_t$	$\Delta^2 Y_t^2$
1	2011	16 189,0	262 083 721				
2	2012	17 128,8	293 395 789	940	883 224		

3	2013	17 717,6	313 913 350	589	346 685	-351	123201
4	2014	18 438,9	339 993 033	721	520 274	133	17556,25
5	2015	19 118,8	365 528 513	680	462 264	-41	1713,96
6	2016	20 256,4	410 321 741	1 138	1 294 134	458	209489,29
7	2017	20 640,9	426 046 753	385	147 840	-753	567159,61
8	2018	21 580,5	465 717 980	940	882 848	555	308136,01
9	2019	21 906,9	479 912 268	326	106 537	-613	376014,24
10	2020	22 458,8	504 397 697	552	304 594	225	50850,25
11	2021	22 970,3	527 634 682	512	261 632	-40	1632,16
12	2022	23 602,5	557 078 006	632	399 677	121	14568,49
13	2023	24 072,4	579 480 442	470	220 806	-162	26341,29
Σ		266 082	5 525 503 976	7 883	5 830 515	-470	1696662,55

Согласно данным таблицы-2, при вычислении следующей величины $V_k = \frac{\sum_{i=k}^{T}(\Delta^2 y_k)^2}{(T-k)C_{2k}^k}$ $k = 1,2,3$, мы видим, что значения коэффициентов вариации конечных разностей близки между собой: $V_1 \approx V_2 \approx V$. Это подтверждает, что трендовая часть исследуемого динамического ряда имеет линейную зависимость.

Коэффициент автокорреляции важен при изучении свойств временного ряда. Для расчета коэффициентов автокорреляции по формуле (3) по статистическим данным составим следующую таблицу (Таблица-3):

Таблица-3

1	2	3	4	5	6	7	
N	Наблюдаемые годы	Y_t - тысяч штук	$Y_t \cdot Y_{t+1}$	$Y_t \cdot Y_{t+2}$	$Y_t \cdot Y_{t+3}$	$Y_t \cdot Y_{t+4}$	$Y_t \cdot Y_{t+5}$

1	2011	16 189,0					
2	2012	17 128,8	277298143,2				
3	2013	17 717,6	303481226,9	286830226,4			
4	2014	18 438,9	326693054,6	315836230,3	298507352,1		
5	2015	19 118,8	352529641,3	338739250,9	327482101,4	309 514 253	
6	2016	20 256,4	387278060,3	373505734	358894792,6	346 967 824	327930859,6
7	2017	20 640,9	418110326,8	394629238,9	380595491	365 707 210	353553847,9
8	2018	21 580,5	445440942,5	437143240,2	412593263,4	397 920 681	382354666,8
9	2019	21 906,9	472761855,5	452178132,2	443754929,2	418 833 640	403939138,4
10	2020	22 458,8	492002685,7	484672133,4	463569844,9	454 934 436	429385305,4
11	2021	22 970,3	515885373,6	503208065,1	495710559,2	474 127 665	465295584,9
12	2022	23 602,5	542156505,8	530083827	517057607,3	509 353 751	487176842,3
13	2023	24 072,4	568168821	552950249,7	540637217,1	527 351 660	519494428,2
Σ		266 082	5101806637	4669776328	4238803158	3 804 711 121	3369130674

На основе Таблицы 3 мы вычисляем коэффициенты автокорреляции (L-лаг) по следующей формуле ([1]-[3]):

$$R_L = \frac{\sum_{i=1}^{N-L} Y_i Y_{i+L} - \frac{\sum_{i=1}^{N-L} Y_t \sum_{i=L+1}^{N} Y_t}{N-L}}{\sqrt{\left[\sum_{i=1}^{N-L} Y_t^2 - \frac{\left(\sum_{i=1}^{N-L} Y_t\right)^2}{N-L}\right]\left[\sum_{i=L+1}^{N} Y_t^2 - \frac{\left(\sum_{i=L+1}^{N} Y_t\right)^2}{N-L}\right]}} \qquad (3)$$

Расчеты показывают, что все значения R(2), ..., R_(5) RL (L=1,2,,3…- lag) отличны от нуля. Поэтому можно предположить, что динамический ряд имеет автокорреляционную связь. Используя критерий Дарбина-Уотсона, проверяем основную статистическую гипотезу H_0 о том, что исследуемый динамический ряд имеет автокорреляционную связь, и альтернативную гипотезу H_1 об ее отсутствии, используя расчеты, приведенные в таблице 2:

$$d_{kuz} = \sum_{t=1}^{T-1} (Y_{t+1} - Y_t)^2 / \sum_{t=1}^{T} Y_t{}^2 = \frac{5830515}{5525503976} \approx 0{,}001.$$

Видим, что значение d_{kuz}=0,001 меньше критического значения d_{krit} =1,06, которое находится в специальной таблице [5] (стр. 194, приложение-9), причем $d_{kuz} < d_{krit}$. Таким образом, с уровнем достоверности 95% динамика поголовья овец и коз имеет автокорреляционную связь.

$$y_t = \rho y_{t-1} + \varepsilon,\ \rho = Cov(y_t, y_{t+1}),$$

То есть динамика среднего поголовья овец и коз в данном сельскохозяйственном году зависит от поголовья в предыдущем и следующем году.

Известно, что для построения интервальной статистической оценки среднего поголовья овец и коз, выращиваемых каждый год, необходимо знать закон распределения этой средней случайной величины Y_T .Согласно центральной предельной теореме теории вероятностей, среднее поголовье овец и коз, содержащихся на больших пастбищах в однородных условиях, будет иметь нормальное распределение. Основная статистическая гипотеза H_0 о том, что динамика среднегодового поголовья овец и коз в республике имеет нормальное распределение (см. табл. 4):

$$H_0 : P(X < x) = F_{a,\sigma}(x)$$

$$H_1 : P(X < x) \neq F_{a,\sigma}(x) \qquad (4)$$

H_1 – В альтернативном случае в результате тестирования с использованием критериев Жака-Берра, Шапиро-Уилкоксона, Пирсона и параметрических критериев предполагается, что распределение нормальное с гарантией 95%.

Было обнаружено, что поверхность имеет матовый оттенок. Используя это утверждение, на основе формул [1]-[5] определяем, что среднее поголовье овец и коз, выращиваемых в республике ежегодно, составляет y_T, а построенная с 95% гарантией интервальная статистическая оценка находится в пределах (18900,52; 22035,48) тыс. голов.

По статистическим данным с использованием компьютерных программ Excel и 7х получены статистические оценки среднего поголовья овец и коз в республике $\bar{y}_T$ на основе важных выборочных характеристик (Таблица-4):

Таблица -4

Статистическая оценка выборочных характеристик среднего поголовья овец и коз, содержащихся в республике за год	Статистическая оценка выборочных характеристик среднего поголовья овец и коз, содержащихся в год
Среднегодовое поголовье овец и коз, тыс. голов y_T	20468 и 20468
Выборочная дисперсия	6615560,2
Выборочное среднеквадратичное отклонение σ_T	2572,1
Коэффициент вариации v (%)	12,57
Асимметрия A_ς	-0,2
Экссесса E_{K_ς}	-1,2
$\bar{y}_t$ Погрешность выборочного среднего значения m_u	$m_u = \frac{2572,1}{\sqrt{13}} = 712,49$
Предельная погрешность m'_u	$m'_u = t\, m_u = 2,20 \cdot 712,49 = 1567,48$
Интервальная статистическая оценка (95% li) $\bar{y}_t \pm t\, m_u$	$\bar{y}_t \pm t\, m_u$ (**18900,52 ; 22035,48**) тысяч штук
Статистическая гипотеза $H_0: P(\bar{y}_T < x) = F_{a,\sigma}(x)$ $N_1: P(\bar{y}_t < x) \neq F_{a,\sigma}(x)$	H_0 приемлем с гарантией 95%

Заключение. На основании статистического анализа среднего поголовья овец и коз, выращиваемых в республике за 2011-2023 годы, $\{u_t, t \in T\}$, как стационарного дискретного динамического ряда, можно сделать следующие выводы:

1) среднегодовое поголовье овец и коз в республике $\{u_t, t \in T\}$ — сложный случайный процесс, зависящий от кормов, используемых для их содержания, использования новых инновационных технологий и многих других случайных факторов;

2) Линия тренда, характеризующая направление изменения средней численности овец и коз в стаде, имеет линейную зависимость y(t)=657,36 t + 20467,85. Присвоив данной модели тренда значение t = 1, мы с 95% гарантией определяем, что среднее поголовье овец и коз, содержащихся в нашей республике в 2024 году, составит 21 125 тыс. голов;

3) Поскольку среднее поголовье овец и коз, содержащихся в республике каждый год (y(t)) является нормально распределенной случайной величиной, то интервальная статистическая оценка, построенная с 95% доверительным интервалом (18900,52; 22035,48), находится в диапазоне тысячи тысяч голов;

ЛИТЕРАТУРА

1. Т.Андерсон "Статистический анализ временных рядов". - М.: «МИР», 1976. - 759 с.
2. Кендал М., Стюарт А. Многомерный статистический анализ и временные ряды. - М.: "Наука", 1976. -736 с.
3. Н.П. Тихомиров «Эконометрика». – Москва: «Экзамен», 2003. – 512 с.
4. Бакалавр искусств Сулайманов, А.А. Файзиев, Ж.Н. Файзиев «Статистический анализ экспериментальных данных». – Ташкент: ТошДАУ, 2015. – 124 с.
5. М.У. Ачилов, А.А. Файзиев «Анализ динамики урожайности плодов и ягод, выращиваемых в Узбекистане», Международный журнал исследований и разработок EPRA (IJRD. Индия). Том: 4. Выпуск: 8. Август 2019 г., С.5-9. (по-английски)
6. А.А. Файзиев, О.З. Карабашов, Н.Н. Мусаева "Прогнозирование динамики урожайности хлопчатника Андижанской области". "Проблемы науки" Вестник науки и образования, Москва. Журнал № 8 (111). Апрель 2021 г., глава 2, страница
7. Х.Е. Менгнаров Методические аспекты в преподавании математики и экологии (Монография)./Ташкент: Букмани принт, 2022.-145 с.

NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING AMALIY USULLARI

Normatova Maftuna Kengash qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
Kamolova Gulshoda Jobir qizi
Maxsus pedagogika, (Logopediya) yo'nalishi
3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753361

ANNOTATSIYA

Maqolada nutq nuqsoniga ega bolalarning maktabga tayyorlashda amaliy usullar, bolalarni maktab muhitiga psixologik jihatdan tayyorlash usullari va bu usullar, bolalarning maktabga muvaffaqiyatli integratsiyasini va ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatini ta'minlash. Bolalarga maktabdagi turli vaziyatlarni oldindan ko'rib chiqish orqali ularning yangi muhitga moslashuvini va zarur ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini ta'minlash usulari haqida so'z boradi.

KALIT SO'ZLAR

Nutq, amaliyot, anglash, maktab, psixologik usul, integratsiya, muloqot, inversiya.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются практические методы подготовки детей с нарушениями речи к школе, методы психологической подготовки детей к школьной жизни и то, как эти методы обеспечивают успешную интеграцию детей в школу, их социальную и академическую успеваемость. Методы, обеспечивающие адаптацию детей к новой среде и приобретение ими необходимых социальных навыков путем заблаговременного оповещения о различных ситуациях в школе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Речь, практика, понимание, школа, психологический метод, интеграция, коммуникация, инверция.

ABSTRACT

KEYWORDS

The article discusses practical methods for preparing children with speech impairments for school, methods of psychologically preparing children for the school environment and how these methods ensure the successful integration of children into school and their social and academic success. Methods of ensuring children's adaptation to the new environment and the acquisition of the necessary social skills by providing them with advance warning of various situations at school.

Speech, practice, understanding, school, psychological method, integration, communication, inversion.

Kirish. Nutq nuqsoniga ega bolalarning maktabga tayyorlashda amaliy usullar nutq nuqsoniga ega bolalarni maktab muhitiga psixologik jihatdan tayyorlashda muhim roʻl oʻynaydi. Bu usullar, bolalarning maktabga muvaffaqiyatli integratsiyasini va ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatini ta’minlash uchun zarurdir.

Bolalarga maktabdagi turli vaziyatlarni oldindan koʻrib chiqish imkonini berish orqali ularning yangi muhitga moslashuvini va zarur ijtimoiy koʻnikmalarni oʻzlashtirishlarini ta’minlash.

Maktab hayotidagi turli vaziyatlarni, masalan, tanaffusda oʻynash, darsda qoʻl koʻtarib javob berish, yoki yangi doʻstlar orttirish kabi holatlar yuzasidan roʻlli oʻyinlar oʻtkazish.

- Ijtimoiy hikoyalar.

Bolalarga maktab hayoti haqida oldindan tushuncha berish va ularni turli ijtimoiy vaziyatlarga psixologik jihatdan tayyorlash.

Maktab hayotiga oid ijtimoiy hikoyalar oʻqish yoki bolalar bilan birgalikda bu kabi hikoyalar yaratish. Bu usul, bolalarning maktabdagi turli ijtimoiy vaziyatlarga reaksiyalarini oldindan koʻrib chiqishlariga yordam beradi.

- Muhitni tanishtirish.

Bolalarning maktabga boʻlgan qoʻrquv va bezovtaliklarini kamaytirish orqali ularning maktab muhitiga moslashuvini osonlashtirish.

Maktabga tashrif buyurishlar tashkil etish, bolalarni sinf xonalariga, oʻyin maydonchalari va boshqa muhim joylarga olib borish, oʻqituvchilarni va maktab xodimlarini oldindan tanishtirish.

- Muloqot mahoratlarini rivojlantirish.

Nutq nuqsoniga ega bolalarning muloqot qilish qobiliyatlarini mustahkamlash orqali ularning tengdoshlari va kattalar bilan samarali aloqa o‘rnatishlariga yordam berish.

Muloqot qilishni o‘rgatuvchi maxsus mashqlar va o‘yinlar, jumladan, navbat bilan gapirish, his-tuyg‘ularni ifodalash, va boshqalarga quloq solish mashqlarini o‘tkazish.

- O‘z-o‘zini himoya qilish ko‘nikmalari

Bolalarni o‘z fikrlarini himoya qilish va zarurat tug‘ilganda o‘zlarini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘z fikrini ifoda etish va zarurat tug‘ilganda o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish. Bu, bolalarning o‘ziga ishonchini oshiradi va maktabdagi potentsial qiyinchiliklarga tayyor turishlarini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda amaliy usullar jarayonida asosiy vositalardir. Ro‘lli o‘yinlari, ijtimoiy hikoyalar, muhitni tanishtirish, muloqot mahoratlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali, bolalar maktabga osonroq moslashadilar va ularning ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatlari oshadi. Bu usullar, o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalar tomonidan bolalarni maktab muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda samarali qo‘llanishi mumkin.

1.bosqich – bolaning mavjud verbal va noverbal muloqot vositalarini faollashtirish.

2.bosqich – yangi varbal va noverbal vositalarni shakllantirish, - “O‘zim va do‘stlarim” tematik bloki doirasida mavjudlarini aniqlashtirish va faollashtirish; piktogrammalar bilan tanishish; ikki yoki undan ortiq belgilarning bir vaqtning o‘zida birlashmalarini faollashtirish.

3.bosqich – “Mening uyim, mening oilam” mavzuli bloki doirasida yangi verbal va noverbal vositalarni shakllantirish, mavjudlarini aniqlashtirish va faollashtirish; ikki yoki undan ortiq belgilar kombinatsiyasining ketma-ketligini tuzish qobiliyatini shakllantirish.

4.bosqich – “Mening derazam tashqarisidagi dunyo” tematik bloki doirasida yangi og‘zaki va noverbal vositalarni shakllantirish, mavjudlarini aniqlashtirish va faollashtirish; ikki yoki undan ortiq belgilarning bir vaqtda assotsiatsiyasini qurish va ikki yoki undan ortiq belgilar kombinatsiyasining ketma-ketligini yaratish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT VOSITALARINI SHAKLLANTIRISHGA OID QO‘LLANGAN ISH USULLARIDAN:

1) Predmetlar va rasmlarga qarashda ularni nomlash. Biz “Qaytar”, “Nomini ayt”, “Ayt” so‘zlarini ishlatmadik, lekin “Top”, “Qanday qichqiradi”, “Kim yashirdi”, “Kim chiqdi” (rasmlarni yig‘ishda, kesma tasvirlarni tanib olish) savollardan foydalanish mumkin;

2) To‘satdan paydo bo‘lgan predmetlar va rasmlarni nomlash. Biz quyidagi o‘yin usulidan foydalandik: - “Ajoyib qopcha” (yoki “Sehrli qalpoqcha”). Bola predmetlarni, rasmlarni nomlaydi;

3) Tasviriy ko‘rgazma stol o‘yinlari: loto; domino kabi o‘yinlar to‘plami.

To‘plamga o‘yin maydoni, hayvonlar yoki odamlarning haykalchalari va kubik kiradi. Shakllarni maydon bo‘ylab harakatlantirib, bola qaysi rasmga tushganiga qarab turli og‘zaki harakatlarni bajaradi. Harakat sxemalari o‘yin maydonining turli sektorlarida tasvirlangan: baraban - barabanni tayoq bilan urishva “bom-bom” deyish, trubka - trubka o‘ynash va “doo doo” kuylash, to‘p - to‘pgaurish “op-op” deyish va sh.k. “juftlar”. Juftlangan rasmlar bola yoshiga mos bo‘lgan darajada nomlashi yoki birga taqlid qilishi mumkin bo‘lgan narsalar yoki harakatlar tasvirlari bilan ishlatiladi. Rasmlar tasvir pastga o‘girilgan holda joylashtiriladi, logoped va bola navbat bilan rasmlarni ikkitadan ochadi. Bu vaqtda bola rasmlarga nom beradi. O‘yinchilarning vazifasi bir xil rasmlarni ochishdir. Kim bir xil tasvirlarni ochsa, uni o‘ziga oladi. Eng ko‘p rasm to‘plagang‘alaba qozonadi.

4) Stol teatri, harakatlanuvchi rasmlar yordamida bolaga mos bo‘lgan leksik materiallarni o‘z ichiga olgan matnlarni sahnalashtirish;

5) Fonatsiya va harakatni sinxronlashtirish uchun mashqlar (yuqorida tavsiflangan). So‘zlarni va tovush taqlidini faollashtirish uchun biz so‘zning nomi, tovush taqlidi endi bola uchun maqsad emas, balki boshqa faoliyatni amalgaoshirish vositasi bo‘lgan vaziyatlarni loyihalashtirsh.

Tadqiqot metodologiyasi.

Nutq nuqsoniga ega bolalar logopedik mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida bir qator texnologiyalardan foydalanish:

“step by step” texnologiya - amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonining to‘rt pog‘ona doirasida kechadigan texnologiyadir.

Bu texnologiya nutq nuqsoniga ega bolalarga bir xilda takrorlanadigan mayda qo‘l motorikasini tez va mukammal o‘rganib olishlariga yordam beradi. Step by step texnologiya qo‘llanilganda, bolalar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so‘ng uni takrorlaydilar va to mukammal o‘zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu texnologiya quyidagi bosqichlardan iborat:

- Tushuntirish;
- Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish;
- Ko‘rsatilgan tarzda qaytarish;

- Mashq qilish.

Step by step texnologiyasinning asosiy belgisi – bolalarning harakatlari logoped ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

Step by step texnologiyasini nutq nuqsoniga ega bolalarda qo‘llashning afzalliklari:

- Bolalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- Vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- Oddiy ish bosqichlarini o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

“erkin assotsiasiyali” texnologiya - evristik faoliyatni yuritish yuqori darajadagi faoliyatni baholashda, berilgan vazifalarni mustaqil bajara olishga imkon yaratadi. Bu texnologiyani qo‘llash orqali og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan nutq nuqsoniga ega bolalarga muammoning yechimini topishni jadallashtiradi.

Bu texnologiyada assosiasiyaning vujudga kelishi tufayli yechillishi zarur bo‘lgan muammo komponentlarining, tashqi muhitning o‘zaro bog‘lanishlari ro‘yobga chiqadi. Tashqi muhit bilan ijodiy jamoaning ijodkorona fikrlari to‘qnashuvi imkonini tug‘diradi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda ishni tashkil etishda guruhli mashg‘ulotlarda har bir nutq nuqsoniga ega bolalar faol ishtirok etishi, bolalar o‘z assotsiasiyasini yoki fikrini taklif etishi zarur hisoblanadi. Bolalarning fikrlarini mujassamlashtirish orqali berilgan vazifalarning yechimini topishga o‘rgatiladi.

“inversiya” texnologiyasi ijodiy vazifalarni yechimini izlab topishga, yangi holatlarda g‘oyalarni yechimini topishga qaratilgan. Bu metod muammolar yechimiga yangicha yondashish, eski qoliplardagi fikrlardan holi ravishdagi insonni talab etadi. Yangicha sharoitda mantiqiy fikr yuritish. Yangicha yechim topish, muammolar yechimini topishga, g‘oyalar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Inversiya metodi dualizm prinsipiga yoki qonuniyatiga asoslanadi. Fikr yuritishda qarshi tomondan yondashuvni talab etadi. Ijodiy fikr yuritishni talab etadi. Nutq nuqsoniga ega bolalar berilgan vazifalarni analiz va sintez, mantiqiy va intuitiv, sintetik va dinamik xarakteristik tomondan yondashuvni talab etadi. Bolalarga vazifani yechimini konkret yoki abstrakt, real va fantastik, ajratib yoki birlashtirib solishtirish orqali yechimlar topishga o‘rgatiladi.

“sinetik” metod – (turli elementlarni birlashtiruvi)

Bu metod ijodkorlik faoliyatini stimullashtirish uchun alohida sharoit,muhit yaratadi, kutilmaganda yangi analoglarning va assotsiasiyaning tug‘ilishi yoki yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Sinetik metod ishtirokchilari muammo bilan tanishtiriladi va jamoa bo‘lib ijodiy yechim topish mexanizmi tushuntiriladi. Uning yechimi bo‘yicha nutq nuqsoniga ega bolalarga tushuntirish ishlari olib boriladi. Bolalarga tasavvur etish,

assotsiativ fikrlash, original metodlarni qo‘llash va o‘yinli elementlar tushuntiriladi. O‘rgatiladi va ularda fikrlarni uyg‘otishga muhit tug‘diriladi.

Sinetik metod qo‘llashda avvaldan muammoni aniq berishdan chekinishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunday holda masalaning yechimi biroz neytrallanishi kuzatiladi.

Shu sababli muammoning ayrim belgilari tahlil etilib, asosiy muammo yechimi tomon boriladi. Ya’ni muammoni qayta shakllantirish, qidirish, izlash, muammoning yechimiga kiritiladi.

Bu metod orqali muammoni hamkorlik asosida qayta shakllantirish yaxshi natijalar beradi.

“step by step”, “inversiya”, “sinetik”, “analog”ni aniqlash, “senkveyn”ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar.

maktabga nutqiy jihatdan tayyorlashdagi vazifalar: shakllangan muloqot vositalarini turli xil muloqot modellarida, turli xil muloqot shakllarida va turli maqsadlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shakllangan muloqot vositalarini turli xil muloqot modellarida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Modellarda shakllangan muloqot vositalaridan foydalanish bo‘yicha mashqlar: “bola – katta” (vositachi o‘yinchoq orqali muloqot qilish, fotosurat - vositachi va bevosita, vositachisiz);

“bola-bola” (bir xil turdagi kommunikatsiya buzilishi bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi “simmetrik” o‘zaro ta’sir va “assimetrik” - turli kommunikatsiya buzilishi bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi);

“bola - bolalar (passiv kuzatuvchi rolida, boshqa bolalar uchun harakatlarni takrorlash rolida, izdosh va pedagog rolida, 3-4 kishilik kichik guruhda va katta guruhda”).

Shakllangan muloqot vositalarini turli xil muloqot shakllarida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Muloqotning vaziyatli-ishbilarmonlik, vaziyatdan tashqari- kognitiv va vaziyatdan tashqari-shaxsiy shakllarida muloqot vositalaridan foydalanish mashqlari.

Faollashtirish usullari:

Muloqotning vaziyatli-ishbilarmonlik shakli – predmet va tasviriy ko‘rgazmaga ega didaktik o‘yinlar, predmetli va hikoyali o‘yinlar;

Muloqotning vaziyatdan tashqari-kognitiv shakllari - kognitiv xarakterdagi o‘yinlar va mashqlar, o‘qish - mazmunini keyinchalik tahlil qilgan holda kitoblarni ko‘rish;

Shaxsiy tajribaga tayanish, fotosuratlarni ko‘rish, matnlarni tahlil qilish va axloqiy mazmunga ega bo‘lgan rasmlarni tahlil qilish, ularni o‘ynash, axloqiy jihatdan muhim vaziyatlarni modellashtirish, piktogrammalar yordamida yaxshi - yomon, yaxshi ko‘rish - yoqtirmaslik kabi tushunchalarni shakllantirish, so‘zlashva belgilashda qo‘llanadi.

Umumiy madaniy ko‘nikmalarni shakllantirish (xayrlashish, salomlashish, tanishish, murojaat qilish, kechirim so‘rash, tasalli berish, hamdardlik bildirish, minnatdorchilik bildirish).

Usullar:

Vositachi o‘yinchoq, vositachi rasm yordamida tashkil etilgan dialog savollariga javoblar (verbal va noverbal). Sahnalashtirilgan vaziyat asosidaso‘roq so‘zsiz va ijobiy yoki salbiy javobni talab qiladigan savollarni (verbal va noverbal) o‘ylab topish. Masalan, “bu to‘pmi?”, “qiz chizayaptimi?”, “konfet shirinmi?” Va sh.k.;

Bir predmet, rasm, fotosurat, sahnalashtirilgan vaziyat bo‘yicha turli savollarni tuzish;

Tushuntirishni talab qiluvchi pedagogning to‘liq bo‘lmagan ko‘rsatmasi; munosabatni ifodalash (verbal va noverbal), matnda taqdim etilgan va

Syujetli rasmda, fotosuratlar turkumsida yoki o‘yinchoqlar, stol teatri yordamida o‘ynalgan vaziyatni baholash;

Vositachi o‘yinchoq tengdoshlarning verbal va noverbal shakldagi harakatlari va javoblariga munosabatni ifodalash va baholash;

Syujetli rasmda tasvirlangan vaziyatga mos ravishda bolaning yuzifodalarini tanlashni taklif qiladigan “bo‘sh yuzlar” (chizish, yuzida tasvirlash, taklif qilingan tasvirlardan tanlash, qahramonning holatini nomlash);

Vazifalarni birga bajarishda, didaktik o‘yinlarda tengdoshlarga harakat va ta’sirni tartibga solish. Ushbu o‘yinlar izchil, ajralmas xususiyatga ega, har bir o‘yinda bir emas, balki korreksion va logopedik bir nechta yo‘nalishlari amalga oshiriladi.

Ish ta’lim bosqichlariga mos keladigan “men va do‘stlarim”, “mening uyim, mening oilam”, “mening oilam tashqarisidagi dunyo” mavzuli bloklari bo‘yicha olib borildi. Bolalar turli vaziyatlarda bir xil vositalardan foydalanishda qayta-qayta mashq qiladilar.

Xulosa va takliflar.

Savodxonlikka o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlarida nutqiy material (tovushlar, bo‘g‘inlar, umumiy so‘zlar, jumlalar, tez aytishlar) mavzular bo‘yicha emas, balki o‘rganilayotgan tovushning maksimal ifodalangani asosida guruhlandi. Shu bilan birga, bir mashg‘ulotda tuzilgan nutq birliklari boshqa turdagi

mashg‘ulotlarda mustahkamlandi (talaffuzga oid mashg‘ulotlarda kommunikativ vositalar ham qo‘llandi).

Muloqot vositalari nafaqat logopedik mashg‘ulotlarda, balki kundalik hayotda ham tabiiy muloqot holatiga kiritildi. Bunda korreksion ta’lim va tarbiyajarayonining barcha ishtirokchilari (o‘qituvchilar, ota-onalar) logopedik ishning natijalari to‘g‘risida xabardor qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova M.Y. “Logopediya” Toshkent – 2019
2. Mo‘minova L.R.-“Logopediya tekshiruvi va bolalarni o‘qitish” Toshkent – 1992 y.
3. Mo‘minova L.R. – “Logopediya” Toshkent – 1994 y.
4. Mo‘minova L.R. , Ayupova M.Yu. _ Nutq terapiyasi -T, 1993 yil.
5. L.R.Mo‘minova . Nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. - T., 2012 yil.
6. Mo‘minova L.R “Maxsus psixologiya” Toshkent 2016 y
7. M.Normatova.–Nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlash: Impress media nashriyoti 2025.
8. M.U. Xamidova Maxsus pedagogika. Toshkent-2018. 95-bet
9. D.A.Nurkeldiyeva, M.U. Xamidova Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar diagnostikasi. Toshkent-2016. 109-bet
10. Axrorova, S. A. Logopedik texnologiya: o‘quv qo‘llanma / S. A. Axrorova. - Jizzax: Ilm nuri print, 2024

TURIZMDA INNOVATSION XIZMATLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Oblaqulova Sitora Olim qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, “Islom ensiklopediyasi” bo’limi kichik ilmiy xodimi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753394

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turizm sohasida innovatsion xizmatlarning turlari, ularning mazmun-mohiyati va iqtisodiyotga ta’siri yoritilgan. Raqamlashtirish, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), onlayn bron tizimlari kabi innovatsiyalar zamonaviy turizmning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu xizmatlarning sayyohlar ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va ular orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlarini tahlil qilinadi. Xorijiy tajribalar misolida innovatsion xizmatlarning afzalliklari ko‘rib chiqilib, O‘zbekistonda ularni joriy etish istiqbollari haqida xulosa va takliflar beriladi.

KALIT SO‘ZLAR

turizm, innovatsion xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, raqamlashtirish, virtual reallik, texnologik yangiliklar, xizmatlar sifati.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются виды инновационных услуг в сфере туризма, их сущность и влияние на экономику. Такие инновации, как цифровизация, мобильные приложения, виртуальная и дополненная реальность (VR/AR), системы онлайн-бронирования стали неотъемлемой частью современного туризма. Роль инновационных услуг в повышении удовлетворенности туристов и достижении экономической эффективности анализируется. На основе зарубежного опыта выделяются преимущества инновационных услуг, а

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

туризм, инновационные услуги, экономическая эффективность, цифровизация, виртуальная реальность, технологические новшества, качество обслуживания.

также предлагаются выводы и рекомендации по их внедрению в Узбекистане.

ABSTRACT

This article explores the types of innovative services in the tourism sector, their significance, and their impact on the economy. Innovations such as digitalization, mobile applications, virtual and augmented reality (VR/AR), and online booking systems have become an integral part of modern tourism. The role of innovative services in enhancing tourist satisfaction and achieving economic efficiency is analyzed. Based on international experience, the advantages of innovative services are highlighted, and conclusions and recommendations for their implementation in Uzbekistan are proposed.

KEYWORDS

tourism, innovative services, economic efficiency, digitalization, virtual reality, technological innovations, service quality.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari shiddat bilan kechayotgan davrda turizm sohasi ham zamonaviy texnologiyalar asosida jadal rivojlanmoqda. Turizm nafaqat madaniy almashinuv va dam olish vositasi, balki ko‘plab davlatlar iqtisodiyotida muhim daromad manbaiga aylangan. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va sohada raqobatbardoshlikni ta’minlashda innovatsion xizmatlar muhim rol o‘ynamoqda.

Innovatsion xizmatlar – bu turizmda ilg‘or texnologiyalar, yangicha yondashuvlar va raqamli yechimlardan foydalangan holda yaratilgan xizmat turlaridir. Bunday xizmatlarga onlayn bron tizimlari, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) asosidagi ekskursiyalar, smart-mehmonxonalar, elektron to‘lov tizimlari va boshqa ilg‘or texnologiyalar kiradi. Ular nafaqat xizmatlarning qulayligini oshiradi, balki turistik obyektlarning daromadlarini ko‘paytirish, operatsion xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali iqtisodiy samaradorlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Turizmda xizmatlar tizimi va innovatsion xizmatlar tushunchasi. Turizmda innovatsion xizmatlar deganda an’anaviy xizmat ko‘rsatish shakllaridan farqli ravishda zamonaviy texnologiyalar, kreativ yondashuvlar va raqamli yechimlar orqali yaratilgan xizmatlar tushuniladi. Bunday xizmatlar turistik mahsulotlarning sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlariga tez va individual javob berish, raqobatbardoshlikni ta’minlash kabi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham turizm sohasida innovatsion xizmat turlari keng joriy etilmoqda. Xususan, mobil ilovalar orqali bron qilish, raqamli gidlar, virtual reallik (VR) texnologiyalariga asoslangan muzey va yodgorliklarni ko‘rish imkoniyatlari, sun’iy intellektga asoslangan yo‘nalish tavsiyalari kabi xizmatlar bunga misol bo‘la oladi. Bu innovatsiyalar turizmda nafaqat xizmatlardan foydalanish qulayligini oshiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, xizmat ko‘rsatish darajasini yuqori bosqichga olib chiqish hamda iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion xizmatlarning joriy etilishi turistik tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda strategik omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasida innovatsion xizmatlarning joriy etilishi nafaqat xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshiradi, balki bevosita iqtisodiy natijalarga ham olib keladi. Eng avvalo, innovatsiyalar orqali xizmatlar diversifikatsiyasi ta’minlanadi, ya’ni turizm mahsulotlari taklifining kengayishi turli toifadagi mijozlar segmentlariga mos yechimlarni taqdim etadi. Masalan, raqamli gid xizmatlari, virtual haqiqat (VR) ekskursiyalari, onlayn bron tizimlari va mobil ilovalar orqali sayyohlar uchun qulayliklar yaratiladi, bu esa ularning xarajat qilishga tayyorlik darajasini oshiradi.

Innovatsion xizmatlar orqali turistik korxonalar o‘z ish faoliyatida samaradorlikka erishadilar. Avtomatlashtirilgan tizimlar inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, bu esa xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining joriy etilishi xizmatlarning tezkor, aniq va uzluksiz bo‘lishini ta’minlaydi, bu esa mijozlarning sodiqligini oshirishga xizmat qiladi. Mijozlar sonining ortishi esa, tabiiyki, daromad hajmining ko‘payishiga olib keladi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar orqali kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari ham turizm sohasiga faol kirib kelmoqda. Bu esa nafaqat raqobat muhitini sog‘lomlashtiradi, balki yangi ish o‘rinlarining yaratilishi orqali makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi. Innovatsiyalarning iqtisodiy foydasi faqat korxona darajasida emas, balki butun hudud va davlat darajasida seziladi. Masalan, zamonaviy ekoturizm loyihalarining rivojlanishi mahalliy aholini ish bilan ta’minlaydi, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilaydi va hududga sarmoyadorlar e’tiborini jalb qiladi.

Umuman olganda, innovatsion xizmatlarning iqtisodiy ahamiyati ulkan bo‘lib, ular orqali turizm sohasi zamonaviy raqobat muhitida barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida oxirgi yillarda innovatsion xizmatlarni

joriy etish bo‘yicha qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezident farmonlari va qarorlari asosida turizmni raqamlashtirish, onlayn xizmatlarni rivojlantirish va yangi innovatsion turizm mahsulotlarini yaratish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Masalan, “E-Visa” tizimi orqali elektron vizalarning joriy etilishi xorijlik sayyohlar uchun O‘zbekistonga kirish jarayonini ancha soddalashtirdi. Shuningdek, “UZTOURISM” milliy sayyohlik portali, mobil ilovalar**,** virtual sayohatlar va 3D tur texnologiyalari orqali xorijiy turistlarga O‘zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari haqida onlayn ma’lumot olish, bron qilish va rejalashtirish imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, Buxoro, Xiva, Samarqand kabi tarixiy shaharlarda "aqlli shahar" tamoyillari asosida turistlar uchun sun’iy intellektli gidlar**,** interaktiv axborot nuqtalari**,** kontaktless to‘lov tizimlari**,** augmented reality (AR) xizmatlari joriy qilinmoqda. Bularning barchasi turistik tajribani zamonaviylashtirib, xizmat sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion xizmatlar ayni paytda qishloq joylarda ham joriy etila boshladi. Masalan, turizm qishloqlarida ekologik va gastronomik turizmni ilgari surish uchun mobil ilovalar, onlayn bron platformalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda raqamli marketing usullari qo‘llanilmoqda. Bu esa mahalliy aholi ishtirokida turizm orqali barqaror daromad manbaini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, O‘zbekiston innovatsion xizmatlar orqali milliy turizm brendini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro bozorda raqobatbardosh bo‘lish sari ishonch bilan odimlamoqda.

Onlayn bronlash tizimlari (Booking, Airbnb va boshqalar). Zamonaviy turizmda onlayn bronlash tizimlari sayohatchilar uchun eng asosiy va qulay xizmatlardan biriga aylangan. Booking.com, Airbnb, Agoda kabi platformalar orqali foydalanuvchilar mehmonxona, kvartira yoki dam olish uchun turli xildagi yotoqxonalarni topish, taqqoslash va bevosita band qilish imkoniyatiga ega. Bu tizimlar real vaqtda ishlaydi, foydalanuvchi sharhlari asosida qaror qabul qilish imkonini beradi va odatda to‘lov, bekor qilish siyosati kabi xizmatlarni ham qamrab oladi. Bu xizmatlar an’anaviy agentliklarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirdi va mustaqil sayohatni osonlashtirdi.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) asosidagi xizmatlar. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari sayyohlarga sayohatga chiqmasdan turib ham turistik obyektlar haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini bermoqda. VR orqali foydalanuvchi tarixiy joylarni 360 daraja ko‘rishi yoki interaktiv tarzda ekskursiya qilishi mumkin. AR texnologiyasi esa real makon ustiga raqamli ma’lumotlarni (masalan, obyektdagi yozuvlar, 3D modellar yoki audio-

tavsiflar) joylashtiradi. Bu uslub ayniqsa muzeylarda, tarixiy yodgorliklarda va shaharning diqqatga sazovor joylarida keng qo‘llanilmoqda.

Smart-mehmonxonalar sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things) va boshqa ilg‘or texnologiyalarga asoslangan holda ishlaydi. Bunday mehmonxonalarda mijozlar mobil ilova orqali xonani band qilishi, xona haroratini sozlashi, chiroqlarni boshqarishi, hatto robot yordamida xizmatlardan foydalanishi mumkin. Bu xizmatlar mehmonxona faoliyatini avtomatlashtiribgina qolmay, mehmonlar uchun shaxsiylashtirilgan qulayliklar yaratadi. Bunday innovatsiyalar orqali turizm sohasida xizmat sifati oshadi va mijozlar ehtiyoji tezroq qondiriladi.

Turistlar uchun ishlab chiqilgan mobil ilovalar sayohat davomida yo‘l-yo‘riq beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. QR-kod asosidagi gid tizimlari orqali sayyohlar diqqatga sazovor joylar haqida matnli yoki audio ma’lumot oladi. Interaktiv xaritalar esa foydalanuvchining hozirgi joylashuvini aniqlab, yaqin atrofdagi turistik obyektlar, ovqatlanish joylari va boshqa xizmatlarni ko‘rsatadi. Bu texnologiyalar orqali sayyoh mustaqil ravishda shaharning istalgan joyini o‘rganishi, yo‘nalish tuzishi va vaqtni samarali boshqarishi mumkin.

Sayohat davomida xavfsiz va qulay to‘lov tizimlarining mavjudligi katta ahamiyatga ega. Apple Pay, Google Pay, PayPal, Stripe kabi xizmatlar, shuningdek, bank ilovalari orqali amalga oshiriladigan elektron to‘lovlar turizmda keng qo‘llanilmoqda. Elektron to‘lovlar nafaqat mehmonxona yoki aviachiptalarni xarid qilishda, balki muzey, restoran yoki boshqa xizmatlar uchun ham ishlatiladi. Bu usul sayyohlar uchun naqd pul olib yurish zaruratini kamaytiradi va xavfsizlik darajasini oshiradi.

Innovatsion xizmatlarning iqtisodiy ahamiyati. Zamonaviy turizmda mijoz ehtiyojlari va talablari tobora murakkablashib borayotgani sababli, ularni qondirishda innovatsion xizmatlar muhim rol o‘ynaydi. Onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, virtual gidlar kabi texnologik yangiliklar sayohatchilar uchun qulaylik, shaffoflik va tezkorlikni ta’minlaydi. Masalan, sayyoh oldindan mehmonxona, transport yoki ekskursiyalarni mustaqil tarzda tanlashi va xarid qilishi orqali o‘z vaqtini tejaydi, xizmatlar sifati haqida oldindan xabardor bo‘ladi. Shuningdek, VR/AR texnologiyalarining joriy etilishi natijasida sayyohlar safar qilishdan oldin manzillarni “ko‘zdan kechirish”, tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Innovatsion xizmatlar nafaqat mijozlar uchun, balki xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar uchun ham iqtisodiy jihatdan foydalidir (Hjalager, 2010). Masalan, onlayn bronlash tizimlari va elektron to‘lov platformalari vositasida vositachilarsiz bevosita mijoz bilan aloqa o‘rnatiladi, bu esa qo‘shimcha xarajatlarni kamaytiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar (masalan, chatbotlar yoki QR-gidlar) yordamida xodimlarga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi, bu esa ishchi kuchi xarajatlarini qisqartiradi.

Boshqa tomondan, innovatsiyalar xizmatlar assortimentini kengaytirishga va shu orqali daromad manbalarini ko‘paytirishga imkon yaratadi. Masalan, mobil ilovalar orqali qo‘shimcha xizmatlar (gidlik, transport, restoran tavsiyalari va h.k.) taklif etilishi, yoki VR/AR orqali pullik virtual ekskursiyalarni taqdim etish orqali yangi daromad oqimlari shakllanadi. Bu esa umumiy turistik biznesning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi va innovatsiyalarni yanada keng joriy qilish uchun zamin yaratadi.

Innovatsion xizmatlar turizm sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratishga katta hissa qo‘shadi. Masalan, IT sohasidagi mutaxassislar – mobil ilovalar ishlab chiquvchilari, veb-dizaynerlar, texnik yordam ko‘rsatuvchilar, AR/VR kontent yaratuvchilari kabi ko‘plab yangi kasblar turizm bilan bog‘liq tarzda shakllanmoqda. Bu esa bandlik darajasining oshishiga olib keladi, ayniqsa yoshlar va malakali mutaxassislar uchun.

Shu bilan birga, texnologiyalarga asoslangan turistik xizmatlar xorijiy investorlar e’tiborini tortadi. Masalan, xalqaro mehmonxona tarmoqlari yoki startap fondlari yuqori texnologiyali, raqamli xizmatlar ko‘rsatuvchi mahalliy kompaniyalarga sarmoya kiritishga qiziqadi. Bu esa mamlakatga investitsiya oqimini oshiradi.

Yana bir muhim jihat – xizmatlar eksporti. Innovatsion xizmatlar, ayniqsa onlayn platformalar va raqamli gidlar, chet ellik turistlar uchun qulaylik yaratadi. Bu orqali xorijdan turib foydalanish mumkin bo‘lgan xizmatlar (masalan, onlayn ekskursiyalar yoki masofaviy bronlash) eksport qilinadi va valyuta tushumi ortadi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsion xizmatlar turistik yo‘nalishlar va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, virtual gidlar va smart-mehmonxonalar orqali sayyohlar uchun yuqori darajadagi qulayliklar yaratiladi. Bu esa turistik maskanlar va kompaniyalarni boshqa hududlarga nisbatan afzal ko‘rinishga olib keladi.

Shuningdek, texnologik yangiliklar turistik xizmatlarning sifatini yaxshilaydi. Bu mijozlarning mamnunligini oshiradi va ijobiy fikr-mulohazalar orqali tavsiyalar ko‘payadi. Ayniqsa, xalqaro bozorda raqobat qilish uchun AR/VR xizmatlari, ko‘p tilli interaktiv xaritalar va zamonaviy to‘lov tizimlarining mavjudligi katta ustunlik sanaladi.

Bundan tashqari, innovatsion yechimlar orqali xizmatlar arzonlashadi va samaradorlik ortadi. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi mijozlarga xizmat ko‘rsatish (chatbotlar) yoki avtomatlashtirilgan bronlash tizimlari vaqt va resurs tejamkorligini ta’minlaydi. Bularning barchasi turizm sohasining jadal rivojlanishiga va bozordagi mavqeni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba va O‘zbekiston imkoniyatlari. Bugungi globallashuv davrida turizm sanoatida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash muhim omilga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlar turizm xizmatlarini raqamlashtirish, sun’iy intellekt, big data, AR/VR kabi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali nafaqat sayyohlarga qulaylik yaratmoqda, balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshirmoqda.

Masalan, Yaponiyada turizm sohasi ilg‘or texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan. Tokiodagi ba’zi mehmonxonalarda robot-xodimlar mijozlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi, yuklarini tashishga yordam beradi va zaruriy ma’lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, interaktiv xaritalar va avtomatik tarjima ilovalari xorijiy sayyohlar uchun katta yengillik yaratmoqda. Bunday texnologiyalar xizmat ko‘rsatish sifati va mijoz mamnunligini oshirishga xizmat qiladi.

Birlashgan Arab Amirliklari, xususan, Dubay shahri innovatsion turizm xizmatlarining global markaziga aylangan. Bu yerda virtual haqiqat (VR) yordamida tarixiy obidalarni onlayn formatda tomosha qilish, sun’iy intellekt asosida ishlovchi aqlli gid ilovalari orqali shahar bo‘ylab sayohat qilish va mobil ilovalar orqali real vaqt rejimida mehmonxona band qilish, transport buyurtma qilish yoki ekskursiyalarni rejalashtirish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, BAAda blokcheyn texnologiyasi asosida sayyohlar uchun xavfsiz va tezkor to‘lov tizimlari joriy etilgan.

food industry, production, economic efficiency, effective programs, financial resources, production technology chain, infrastructure, export volume, small food enterprises, factors affecting the development of small enterprises, traditional factors, labor market, market

The article examines the location of small enterprises in the food industry and the economic chain links between agricultural producers and processing enterprises. A chain link between small consumer goods manufacturing enterprises is proposed.


infrastructure, transport factors, specialization, chain link of the food industry.

Янги Ўзбекистон шароитида маҳаллий озиқ-овқат саноатини қўллаб-қувватлашга қаратилган чора-тадбирлар соҳанинг барқарор ривожланиш тенденцияларига эришиш имкониятларини яратди. Жумладан, “Сўнгги йилларда республикада озиқ-овқат саноатини ривожлантириш, соҳага инвестиция маблағларини жалб қилиш ва экспорт фаолиятини қўллаб-қувватлаш бўйича амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми 6,1 миллиард АҚШ долларидан ва уларнинг йиллик экспорти ҳажми 510 миллион АҚШ долларидан ошди. Шунингдек, охирги уч йилда импорт ўрнини босувчи 75 турдаги 289,9 миллион АҚШ доллари миқдоридаги озиқ-овқат саноати маҳсулотлари ишлаб чиқарилиши таъминланиб, импорт ҳажми 7,4 фоизга камайди. Республика саноатида озиқ-овқат саноати улуши 14 фоиздан 16,6 фоизга ошди”[53]. Шунга қарамай, республика озиқ-овқат саноатини ривожлантириш салоҳиятидн бугунги кунда етарли даражада фойдаланилмаётганлиги турли ҳукумат қарорлари, жумладан, Президент Ш.М. Мирзиёевнинг соҳа тадбиркорлик субъектлари билан учрашувларида бир неча бор таъкидлаб ўтилган.

Таҳлилларга кўра, бугунги кунда мамлакат озиқ-овқат саноатини давлат томонидан қўллаб-қувватлашга қаратилган дастурлар самарадорлигини таъминлашда қуйидаги тизимли муаммолар (1-расмга қаранг) мавжуд эканлиги аниқланди:

- молиявий ресурсларнинг етишмовчилиги – кичик ва ўрта турдаги корхоналарнинг молиявий имкониятларининг чекланганлиги билан биргаликда, уларни тижорат банклари томонидан кўрсатилаётган кредитлаш хизматларидан фойдаланиш жараёнидаги кредит таъминоти билан боғлиқ молиявий муаммоларга дуч келиши;

[53] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республикада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-36-сон фармони, 16.02.2024 й.



1-расм. Ўзбекистонда озиқ-овқат саноатини қўллаб-қувватлашга қаратилган давлат дастурлари самарадорлигига салбий таъсир кўрсатувчи муаммолар[54]

- озиқ-овқат саноати корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш технологияларининг эскирганлиги – маҳаллий озиқ-овқат саноати корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларини модернизациялаш бўйича амалга оширилаётган инвестицион лойиҳаларда илғор технологиялар ва инновцияларни, замонавий ишлаб чиқариш воситаларини амалиётга жорий этилишидаги сусткашлик. Аксарият ҳолатларда маънавий эскириш ҳолатидаги ишлаб чиқариш техникалари асосида ишлаб чиқариш жараёнларини қуроллантириш ҳолатлари намоён бўлади;

- озиқ-овқат саноати ва ёндош тармоқлар инфратузмалари билан боғлиқ муаммолар – озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг ҳом ашё таъминоти, яъни, қишлоқ хўжалиги, жумладан, логистик хизматлар кўрсатишнинг ташиш, сақлаш ва соҳадаги қайта ишлаш тизимлари инфратузилмаларининг етарли даражада ривожланмаганлиги;


- экспорт ҳажмининг чекланганлиги – маҳаллий озиқ-овқат саноати корхоналари томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар миллий стандартлар тизимига мос келган ҳолда, уларнинг халқаро даражадаги маҳсулот сифати, унинг хавфсизлиги ва экологик стандартлар талабларига мос келмаслиги.

Янги Ўзбекистон шароитида республика вилоятларида кичик саноат зоналарини ташкил этган ҳолда мамлакат саноатининг риволаниш салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, жумладан, кичик саноат корхоналарини иқтисодий қўллаб-қувватлашга қаратилган дастурлар самарадорлигини оширишга қаратилган ислоҳотларга устуворлик қаратилиб келинмоқда. Хусусан, кейинги йилларда ҳукумат томонидан “махсус иқтисодий, кичик саноат, ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари фаолиятини

[54] Муаллиф томонидан тузилган

мувофиқлаштириш ва бошқариш тизимини янада соддалаштириш, инвестициялар жалб қилиш учун шароитларни яхшилаш, инвестиция лойиҳаларини жадал амалга оширишни таъминлаш, шу асосда янги иш ўринларини ташкил этиш ва аҳоли даромадларини ошириш”[55] устувор вазифасини белгилаб берилганлиги вилоятларда кичик саноат корхоналарини ривожлантириш бўйича тизимли ислоҳотлар изчил давом эттирилишидан далолат беради.

Таҳлилларга кўра, кичик саноат корхоналари мамлакат иқтисодиётида устувор аҳамият касб этувчи хўжалик юритиш шакллари қаторидан ўрин эгаллаган ҳолда, мамлакат иқтисодий ривожланиш тенденцияларига юқори даражада ўз хиссасини қўшиб келмоқда. Жумладан, 2010-2024 йилларда мамлакат ЯИМ ҳажмида кичик саноат корхоналарининг улуши ўрта ҳисобда 60,4 фоизни ташкил этиб, таҳлил этилаётган даврда кичик саноат корхоналарининг ЯИМдаги улуши динамик ривожланиш тенденциясига эга бўлган ҳолда, 2010-2016 йилларда 60,8 фоиздан 67,2 фоизгача етган бўлса, 2024 йилга келиб ушбу кўрсаткич 54,3 фоизга тенг бўлди (2-расмга қаранг). Ушбу ҳолат 2017 йилдан бошлаб мамлакатда Янги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларнинг амалга оширилиши шароитида ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг либераллашуви кучайиб, саноат корхоналари таркибида ўрта ва йирик турдаги корхоналар сони ортиб бораётганлиги билан изоҳланади.



2-расм. Ўзбекистонда кичик саноат корхоналарининг ривожланиш тенденциялари, фоизда[56]

Шу билан биргаликда, таҳлил этилаётган даврда мамлакат жами саноат ишлаб чиқариши таркибида кичик саноат корхоналарининг улуши ўрта ҳисобда 32,4 фоизни ташкил этиб, ушбу кўрсаткич ҳам динамик ривожланиш

[55] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Махсус иқтисодий, кичик саноат, ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари фаолияти самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-153-сон фармони, 13.06.2022 й.


[56] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тузилган

тенденциясига эга бўлганлиги билан ҳарактерланади. Маълумотларга кўра, 2010-2016 йилларда жами саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш таркибида кичик саноат корхоналарининг улуши 26,6 фоиздан 45,3 фоизга етган бўлса, 2019 йилга келиб ушбу кўрсаткич 25,8 фоизни ташкил этиб, 2024 йилда эса 32,4 фоизга тенг бўлди (2-расмга қаранг). Экспертлар томонидан кичик саноат корхоналарининг ялпи саноат ишлаб чиқариши ҳажмидаги улушининг ривожланиш тенденциялари динамик тенденцияга эга бўлиб келаётганлиги, саноат тармоқларида чуқур таркибий ўзгаришларни амалга оширилиши, юқори қўшилган қийматга, ҳамда, илм-фан сиғимкорлиги жиҳатидан кичик корхоналарга нисбатан катта салоҳиятга эга бўлган ўрта ва йирик саноат корхоналари фаолияти ривожланиб бораётганлиги билан биргаликда, уларда маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларини вертикал ва горизонтал диверсификациялаш жараёнлари жадаллашиб бораётганлиги билан изоҳланади.

Юқорида ўтказилган таҳлилларга асосланган ҳолда, мамлакат озиқ-овқат саноати ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишда кичик саноат корхоналари ўртасида ўзаро иқтисодий манфаатдорлик асосида иклюзив, самарали ва боғланган бозорларни яратишда озиқ-овқат қиймат занжирларига кириш имкониятларидан фойдаланишга устуворлик қаратиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Янги Ўзбекистон шароитида бюджет-солиқ, пул-кредит, божхона тарифлари, озиқ-овқат саноатида амалга оширилаётган давлат сиёсати, озиқ-овқат маҳсулотлари бозор нархларининг шаклланиши кичик саноат корхоналарини жойлаштириш механизмиларига ўз таъсирини ўтказиб, улаарни энергия манбаларига яқинлашуви, бозордаги потенциал талаб ва таклифга қараб ҳамда, ишлаб чиқариладиган маҳсулот турига қараб ҳом ашё таъминоти занжирига яқинлашувини кучайтирмоқда. Шу билан биргаликда, озиқ-овқат саноати кичик корхоналари жойлашувида ёндош тармоқлар инфратузилмаси, жумладан, логистик хизматлар кўрсатиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сифатини бузмааган ҳолда узоқ вақт сақлаш имконини берувчи замонавий музлатгичлар билан қуролланган омборларга яқин ҳудудларда жойлаштирилиши ҳолатлари ҳаам сўнгги йилларда кўзга ташланмоқда. Умуман олганда, кичик озиқ-овқат саноати корхоналари жойлашувига табиий, анъанавий, транспорт, меҳнат бозори, бозор инфратузилмаси ва молиявий ресурслар билан боғлиқ бўлган омиллар таъмир кўрсатиб, улар қуйидагича изоҳланади:

- табиий омиллар – бу турдаги омиллар кўпроқ корхона томонидан ишлаб чиқарилаётган озиқ-овқат маҳсулоти тури бўйича ҳом ашё таъминоти занжирига, жумладан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчи деҳқон

ва фермер хўжаликларига яқин бўлган ҳудудларда жойлаштирилади. Одатда бундай жойлашув ҳом ашё таъминоти билан боғлиқ бўлган ҳаражатларни қисқариши ҳисобига корхона томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг бозор баҳосининг пасайишига олиб келади. Шу билан биргаликда, мазкур омилларга устуворлик қаратилиши корхона томонидан ишлаб чиқарилган озиқ-овқат маҳсулотининг бозор ҳудудларидан узоқлашишига сабаб бўлиши мумкин. Бу эса аксинча, у томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг бозор нархини ташиш ҳаражатлари ҳисобига ортишига олиб келиши мумкин бўлади. Одатда табиий омилларга қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган маҳсулотларни узоқ-муддат сақлаш ёки уларни ташиш жараёнида сифат бузилиши билан боғлиқ бўлган ҳолатлар кўп учраганда устуворлик қаратган ҳолда кичик озиқ-овқат саноат корхоналарининг жойлаштирилиши кўзга ташланади. Жумладан, ушбу омил ҳудуднинг табиий-иқлимий шарт-шароитлари, ҳудуднинг географик жойлашуви, ҳамда экологик вазият билан боғлиқ бўлган жиҳатларини ҳам ўз ичига олади;



3-расм. Кичик озиқ-овқат саноати корхоналарини жойлаштирилишига таъсир кўрсатувчи омиллар[57]

- анъанавий омиллар – бу корхона жойлаштирилиши мумкин бўлган ҳудудларда муқобил ҳолатдаги озиқ-овқат маҳсулотини ишлаб чиқариш корхонаси учун ажратилган ер майдонларида ишлаб чиқариш нуқталарини ташкил этилиши назарда тутилади. Бунда мамлакат иқтисодиёти учун хос бўлган хусусиятлардан келиб чиқиб, шаклланган ишлаб чиқариш нуқтасини жойлаштириш билан боғлиқ бўлган ижтимоий-иқтисодий анъаналар назарда тутилади. Мамлакатимиз амалиётида бу турлаги омиллар кўпроқ табиий омиллар билан боғлиқликда, яъни, ҳудуднинг географик жойлашуви, табиий-

[57] Муаллиф томонидан тузилган

иқлимий шарт-шароитлари, экологик вазият ҳамда истеъмол бозорларига яқин жойларда жойлаштирилиши билан боғлиқ ҳолда намоён бўлади;

- транспорт омиллари – бунда корхона томонидан ишлаб чиқарилган озиқ-овқат маҳсулотлари, жумладан, маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур бўладиган ҳом ашёни ташиш учун қулай транспорт инфратузилмаси мавжуд бўлган ҳудудларда ишлаб чиқариш нуқталарини жойлаштирилиши назарда тутилади. Иқтисодий адабиётларда ўтказилган тадқиқотлар натижаларига кўра, бугунги кунда мамлакатимиз амалиётида озиқ-овқат саноати маҳсулотлари бозор нархи шаклланишида транспорт хажаратлари маҳсулот нархининг ўрта ҳисобда 10-15 фоиз[58] улушга эга эканлиги аниқланган. Бундан кўриниб турибдики, кичик корхоналар учун транспорт омиллари билан боғлиқ ҳолда уларни жойлаштирилиши улар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг бозор баҳосига сезиларли даражада таъсир кўрсатиб, ишлаб чиқарилган озиқ-овқат маҳсулотларининг бозор айланмси ҳажмининг нарх ортиши ҳисобига камайишига сабаб бўлиши мумкин бўлади;

- меҳнат бозори омиллари – бунда кичик озиқ-овқат саноати корхоналарини жойлаштиришда меҳнат бозоридги талаб ва таклиф, жумладан ҳудуддаги демографик омилларни инобатга олиш талаб этилади. Бу турдаги омиллар бир тарафдан корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур ёлланма ишчиларни ишга ёллаш билан боғлиқ бўлган харажатларга ўз таъсирини кўрсатса, бошқа тарафдн корхона томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг ҳудуддаги озиқ-овқат маҳсулотлари бозоридаги потенциал талаб ҳажмини баҳолашга имкон беради;

- бозор инфратузилмаси омиллари – бу турдаги омиллар қаторига банк ва молия институтлари, лизинг, суғурта, биржа кабиларни киритиш мумкин бўлиб, улар кичик саноат корхоналарини моддий ва молиявий ресурслар билан тезроқ ва самарали айрбошлашини таъминлашга хизмат қилади. Бозор инфратузилмаларининг янги илғор ва информацион технологиялар асосида кичик саноат корхоналарини жойлаштиришда муҳимлиги билан ажралиб туради. Бундан ташқари замонавий ахборот технологиялари ҳамда алоқа тизимини шакллантириш кичик саноат корхоналарини жойлаштиришда янги ва юқори сифат даражаларига эришиш учун имкон очиб бермоқда. Юқори илғор технологияларга асосланган информацион технологияларнинг қўлланилиши саноатнинг нафақат, кичик саноат балки, барча тармоқларида таркибий ўзгаришларга етаклади. Натижада, информацион манбаалар ва технологиялар кичик саноат корхоналарни жойлаштириш бўйича аниқ таклиф

[58] Турсунова Н., Шаропова М. Кичик инновацион саноат корхонларни жойлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. Yosh olimlar: ilmiy-amaliy konferensiya. 2023 y. – 101-107 betlar

ва тавсиялар ишлаб чиқишга ёрдам беради. Кичик саноат корхоналарини ривожлантириш ва жойлаштириш институционал ўзгаришларга, хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнесни ривожлантириш учун маълум қулай шароитлар яратилиши билан боғлиқ ҳисобланади;

- молиявий омиллар – бунда молиявий ресурсларнинг асосий манбааи сифатида минтақаларда инвестицион муҳитни яратиб, унинг жозибадорлигини таъминлаш орқали хорижий инвестицияларни жалб қилиш, маҳаллий бюджетларнинг даромад базаларини кенгайтириш ва кичик корхоналарни жойлаштириш, аҳоли маблағларини жалб қилиш орқали инвестицион фаолликни ошириш, турли бюджетдан ташқари жамғармалар ва халқаро молия ташкилотлари грантидан унумли фойдаланишни кўрсатиш мумкин бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, бугунги кунда республика ҳудудларида уларнинг қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етишитириш бўйича ихтисослашган агрокластерлар фаолиятини, жумладан, вилоятлар кесимида кичик саноат зоналарини ташкил этган ҳолда кичик саноат корхоналарини ривожлнтиришга устуворлик қаратилиб келинаётганлигини инобатга олган ҳолда, кичик иқтисодий субъектлар, жумладан, кичик озиқ-овқат саноати корхоналари, кичик қишлоқ хўжалиги субъектлари ўртсида ўзаро иқтисодий манфаатдорликка асосланган инклюзив, самарали ва боғланган бозорларни яратиш амалиётига ўтишда озиқ-овқат маҳсулоти тури бўйича қиймат занжирларига биргаликда киришиш механизмини ишлаб чиқдик (4-расмга қаранг).

Бунда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчи фермер, деҳқон ва шахсий томорқа хўжаликлари фаолияти улар томонидан етиштирилган маҳсулотларни қайта ишловчи кичик саноат корхоналари билан интеграциялаштирилиб, кооперацион муносабатлар асосида озиқ-овқат маҳсулоти тури бўйича қиймат занжиридаги кичик субъектлар иштироки ташкил этилган бўлса, кейинчалик, бозор рақобати курашининг кучайиши сабабли қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи, жумладан, етиштирилган маҳсулотларни ташиш, сақлаш, қайта ишланган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қадоқлаш, истеъмолчиларга етказиб бериш каби хизмат кўрсатувчи субъектлар ҳам мазкур интеграцион бирлашма фаолиятига қўшиб олинганлиги билан характерланади.




4-расм. Кичик субъектлар ўртасида озиқ-овқат занжирига киришиш орқали инклюзив, самарали ва боғланган бозорларни яратиш механизми[59]

Бу эса ўзаро иқтисодий манфаатли ҳамкорлик асосида кичик субъектлар томонидан инклюзив, самарали ва боғланган бозорларни яратиш имкониятини вужудга келтиради. Бунда ишлаб чиқариш харажатлари, жумладан, вақт ва капитал сарфини кескин камайтирганлиги сабабли, рақобат курашида рақобатчи йирик корхоналарга қараганда нисбий устунликка эга бўлиш имкониятларини кенгайтириши илмий асосланган. Натижада кичик озиқ-овқат саноати корхоналари ўрта ва йирик турдаги корхоналар билан бемалол рақобатлаша оладиган даражада маҳсулот ишлаб чиқариш самарадорлигига эришишади.

Шу билан биргаликда, республика ҳудудларининг қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш бўйича ихтисослашувидан келиб чиққан ҳолда,

[59] Муаллиф томонидан тузилган

кичик озиқ-овқат саноати корхоналарини ўзаро мунтаносибликда “нуқтали” кичик саноат зоналарини ташкил этган ҳолда маҳсулот ишлаб чиқариш занжири таъминотини мустаҳкамлашга қаратилган давлат дастурларини амалга оширишга устуворлик қаратиш керак бўлади. Бундай усул орқали кичик озиқ-овқат саноати корхоналари фаолиятини ривожлантириш ҳудудий ихтисослаштиришга қаратилган дастурларнинг таркибий компоненти ҳисобланди. Бунда махаллий бошқарув органлари томонидан давлат хусусий шериклик механизми асосида кичик озиқ-овқат саноати корхоналарини ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар амалга оширилади. Шунингдек, кичик озиқ-овқат саноати корхоналарига имтиёзли молиявий хизматлар кўрсатиш мақсадида тегишли тижорат бандалари ва лизинг компаниялари ҳам бириктирилади (5-расмга қаранг).



5-расм. Ҳудудларнинг қишлоқ хўжалигига ихтисослашуви асосида “нуқтали” кичик озиқ-овқат саноати зоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш занжири таъминотини қўллаб-қувватлаш механизми[60]

Бу орқали кичик озиқ-овқат саноати корхоналарининг молиявий ресурсларга бўлган талаби, ҳамда кичик саноат корхоналарини жойлаштиришда бозор инфратузилмаси омиллари самарадорлигини таъминлашга эришилади.

Таклиф этилаётган ҳудудларнинг қишлоқ хўжалигига ихтисослашуви асосида “нуқтали” кичик озиқ-овқат саноати зоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш занжири таъминотини қўллаб-қувватлаш механизмининг яна бир ўзига хос жиҳати кичик озиқ-овқат саноати корхоналари томонидан аграр ва бозор хизматлари кўрсатиш амалиётининг мавжудлигида намоён бўлади.

[60] Муаллиф томонидан тузилган.

Бунда бу турдаги хизматлар кўрсатувчи кичик иқтисодий субъектлар ҳудудий интеграцион-кооперацион қишлоқ хўжалиги бирлашмасига бириктирилиб, нафақат кичик озиқ-овқат саноати корхоналарининг ўз эҳтиёжлари, балки бошқа қишлоқ хўжалиги субъектлари учун ҳам бу турдаги хизматларни кўрсатиши мумкин бўлади. Бу эса ҳудуднинг қишлоқ хўжалиги билан ўзаро мутааносибликда озиқ-овқат саноатини ривожлантириш салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширади.

Озиқ-овқат саноат корхоналарини ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишда кичик озиқ-овқат корхоналарини ўрнини ўрганиш асосида қуйидаги хулосаларга келдик:

- давлат даражасида мамлакатда озиқғовқат саноатини барқарор ва самарали ривожланиб боришини таъминлаш, молиявий ресурслар билан, ишлаб чиқариш технологияларини инновацион тарзда янгилаш билан, бозор инфратузилмарини инновацион тарзда ривожлантириш ва озиқ-овқат саноатини ривожлантириш учун импорт ва экспорт муаммоларини талаб ва таклиф асосида ташкил этиш зарур;
- республика ҳудудларининг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш бўйича иҳтисослашувидан келиб чиққан ҳолда, кичик озиқ-овқат саноат корхоналарини ўзаро мутаносибликда “нуқтали” кичик саноат озиқ-овқат зоналарини ташкил этишда маҳсулот ишлаб чиқаришда занжир таъминотини мустаҳкамлашга қаратилган давлат дастурларини амалга оширишни таъминлаш лозим;
- таклиф этилган ҳудудларнинг қишлоқ хўжалигига иҳтисослашуви асосида саноат корхоналари томонидан аграр ва бозор хизматларини кўрсатиш мажмуасини ривожлантириш зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Пахтачилик тармоғини бошқариш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 28 ноябрдаги ПҚ-3408-сон қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика ҳудудларини қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришга иҳтисослаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” 2020 йил 11 майдаги ПҚ-4709-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика озиқ-овқат саноатини жадал ривожлантириш ҳамда аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлақонли таъминлашга доир чора-тадбирлар тўғрисида” 2020 йил 9 сентябрдаги ПҚ-4821-сон қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Махсус иқтисодий, кичик саноат, ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари фаолият самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сон фармони.
5. Алтухов А.И. Продовольственная безопасность в контексте реализации новой редакции ее доктрины // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии, № 9, 2020. – с. 82-89.
6. Қурбонова А.Д. Озиқ-овқат саноати корхоналарида персонални мотивациялаштиришнинг ўрни ва аҳамияти. Иқтисод ва молия, № 9 (145), 2021. – 42-47 бетлар.
7. Зайнитдинова У. Барқарор иқтисодий ўсиш омиллари / Бозор, пул ва кредит – Т., 2011, № 6, 38-42 б.
8. Иванова Г.Н., Окрепилов В.В., Окрепилова И.Г. Развитие теории управления качеством с целью устойчивого развития и повышения качества жизни. Качество и жизнь. № 1. 2016. – с. 3-9.
9. Яськин А.Н. Обеспечение безопасности пищевой продукции в рамках интегрированных систем менеджмента. Национальные интересы: приоритеты и безопасность. № 18 (111), 2011. – с. 71-76
10. Bresciani S. Open, networked and dynamic innovation in the food and beverage industry. British Food Journal Vol. 119 (11), 2017. – pp. 2290-2293
11. Majid I., Nayik G. A., Dar S. M., & Nanda V. Novel food packaging technologies: Innovations and future prospective. Journal of the Saudi Society of Agricultural Sciences Vol. 17 (4), 2018. – pp. 454-462

KIMYO FANINI O‘QITISHDA BAHOLASHNING YANGI METODI: EVALBEE DASTURI MISOLIDA

Temirov Farrux Faxridinovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, Buxoro shahar 27-maktabning oliy toifali kimyo fani o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753505

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilar bilimini baholashning an’anaviy usullariga muqobil ravishda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, EvalBee dasturining imkoniyatlari tahlil qilinib, uning yordamida testlarni tez va samarali tekshirish, natijalarni tahlil qilish hamda o‘quvchilarga tezkor fikr-mulohaza berish yo‘llari batafsil yoritilgan. Dasturdan foydalanish orqali baholash jarayonini optimallashtirish va o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

kimyo o‘qitish, baholash, EvalBee, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, test, tezkor fikr-mulohaza.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются возможности использования современных цифровых инструментов в качестве альтернативы традиционным методам оценки знаний учащихся при обучении химии. В частности, анализируются возможности программы EvalBee, подробно описываются способы быстрой и эффективной проверки тестов, анализа результатов и предоставления оперативной обратной связи учащимся. Представлены практические рекомендации по

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

обучение химии, оценивание, EvalBee, инновационные методы, цифровые технологии, тест, оперативная обратная связь.

оптимизации процесса оценивания и повышению учебной мотивации учащихся с помощью этой программы.

ABSTRACT

This article explores the possibilities of using modern digital tools as an alternative to traditional methods of assessing students' knowledge in chemistry education. Specifically, it analyzes the capabilities of the EvalBee program, detailing methods for quick and efficient test checking, result analysis, and providing prompt feedback to students. Practical recommendations are offered on optimizing the assessment process and enhancing student learning motivation through the use of this program.

KEYWORDS

chemistry teaching, assessment, EvalBee, innovative methods, digital technologies, test, prompt feedback.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimiga ham innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qitish samaradorligini oshirishda nafaqat o‘quv materialining sifati, balki o‘quvchilarning bilimini obyektiv va tezkor baholash mexanizmlari ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kimyo fani, o‘ziga xos murakkabligi va amaliy ahamiyati bilan, o‘quvchilardan nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirish bilan birga, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini ham talab etadi. An’anaviy baholash usullari, masalan, yozma ishlar yoki og‘zaki so‘rovlar, ko‘pincha vaqt talab qiladi va natijalarni tahlil qilishda subyektivlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, xususan, baholash jarayonini avtomatlashtiradigan dasturiy ta’minotlardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada EvalBee dasturidan foydalangan holda kimyo fanini o‘qitishda baholashning yangi, samarali metodlari tushuntiriladi.

Asosiy qism. An’anaviy baholash usullarining kamchiliklari va yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda.Kimyo darslarida o‘quvchilarning bilimini baholashda asosan quyidagi usullardan foydalaniladi:

Og‘zaki so‘rov: O‘qituvchi o‘quvchiga savollar beradi va uning javoblariga qarab baho qo‘yadi. Bu usul shaxsiy muloqotni ta’minlasa-da, katta sinflarda har bir o‘quvchini baholashga vaqt yetmasligi va o‘qituvchining subyektiv qarashlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Yozma ishlar/nazorat ishlari: O‘quvchilar belgilangan vaqt ichida savollarga yozma javob berishadi. Bu usul bilimlarni tizimli tekshirish imkonini bersa-da, tekshirish jarayoni ko‘p vaqt oladi va natijalar tezkorlik bilan o‘quvchilarga yetkazilmasligi mumkin.

Test sinovlari: Bu usul ko‘p sonli o‘quvchilarning bilimini qisqa vaqt ichida tekshirish uchun qulay. Biroq, an’anaviy testlarni qo‘lda tekshirish ham ko‘p mehnat talab qiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullar o‘z o‘rniga ega bo‘lsa-da, ularning har biri ma’lum bir cheklovlarga ega. Ayniqsa, o‘quvchilar soni ko‘p bo‘lgan sinflarda baholash jarayonini samarali tashkil etish, natijalarni tezkor tahlil qilish va o‘quvchilarga o‘z xatolari bo‘yicha tezkor fikr-mulohaza berish dolzarb muammolardir. Zamonaviy texnologiyalar aynan shu muammolarga yechim topishga yordam beradi.

EvalBee dasturining imkoniyatlari va kimyo fanida qo‘llanishi

EvalBee – bu test natijalarini skanerlash va avtomatik ravishda baholash uchun mo‘ljallangan mobil ilova (va kompyuter dasturi). Uning yordamida o‘qituvchilar ko‘p variantli testlarni (multiple-choice questions) tezkor tekshirib, natijalarni raqamli shaklda saqlashi va tahlil qilishi mumkin. Dastur quyidagi afzalliklarga ega:

Tezkor baholash: EvalBee dasturi telefon kamerasi yordamida maxsus test blankalarini skanerlab, javoblarni bir necha soniya ichida tekshiradi. Bu vaqtni sezilarli darajada tejaydi. Kimyo fanida nazariy bilimlarni tekshirishda juda qulay.

Xatosiz natijalar: Avtomatik tekshirish inson omili bilan bog‘liq xatolarni minimallashtiradi. Bu baholashning obyektivligini oshiradi.


Batafsil tahlil: Dastur har bir o‘quvchining natijasi, umumiy sinf natijalari, eng ko‘p xato qilingan savollar va mavzular bo‘yicha batafsil statistik ma’lumotlarni taqdim etadi. Kimyo mavzularini o‘zlashtirish darajasini aniqlashda bu ma’lumotlar juda qimmatlidir. Masalan, "Kimyoviy reaksiya turlari" yoki "Redoks reaksiyalar" mavzusida qaysi savollar ko‘proq xatolikka yo‘l qo‘yilganini aniqlash mumkin.

Tezkor fikr-mulohaza: Natijalar tezkorlik bilan olinishi sababli, o‘qituvchi darhol o‘quvchilarga ularning xatolari bo‘yicha fikr-mulohaza bera oladi. Bu o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faolroq jalb etilishini ta’minlaydi va o‘z bilimlaridagi bo‘shliqlarni tezda to‘ldirishga yordam beradi. Kimyo fanida ayniqsa formulalar, reaksiyalar yozishdagi xatolarni tezkorlik bilan ko‘rsatish o‘quvchilar uchun juda foydali.

Qog‘oz sarfini kamaytirish: Garchi test blankalari chop etilishi kerak bo‘lsada, natijalarni saqlash va hisobotlarni shakllantirish raqamli tarzda amalga oshiriladi, bu esa qog‘oz sarfini kamaytiradi.

EvalBee dasturidan foydalanish bosqichlari (kimyo misolida)

Test blankasini tayyorlash: EvalBee dasturi o‘zining maxsus shablonlarini taqdim etadi. (1-rasm). O‘qituvchi ushbu shablon asosida test blankasini chop etadi. Bu blankalarda javoblarni belgilash uchun maxsus doirachalar mavjud.



1-rasm.

2-sahifasida har bir mavzu bo‘yicha nechta savollar soni, javobi nechta variantdan iborat ekanligi va har bir javoblar uchun necha ball berilishi to‘ldiriladi. (2-rasm) Bunda yuqori sinf o‘quvchilarning BMBA ning test sinovlariga tayyorgarlik darajalarini aniqlash uchun maxsus blok testlar o‘tkazish ham mumkin. Buning uchun majburiy fanlarga 1,1, asosiy birinchi fan uchun 3,1, ikkinch fan uchun 2,1 balldan baholab, jami 189 balli sistemadan nechi ball olishini tekshirish mumkin.


2. Test savollarini tuzish: Kimyo fani uchun xos savollar (masalan, kimyoviy elementlarning belgisi, formulalar, reaksiyalarning nomi yoki turlari bo‘yicha savollar) bilan test tuziladi. Kimyo fani bo‘yicha, masalan, "Atom tuzilishi", "Kimyoviy bog‘lanishlar", "Eritmalar", "Organik kimyo asoslari" kabi mavzular bo‘yicha ko‘p variantli test savollari tuziladi. Savollarning har biriga 4-5 ta javob varianti beriladi, shulardan bittasi to‘g‘ri bo‘ladi.

3.Javob kalitini kiritish: Dasturga to‘g‘ri javoblar kaliti kiritiladi. Bu jarayon juda oddiy va intuitiv. (3-rasm)


4.Testni o‘tkazish: O‘quvchilar test blankalarida to‘g‘ri javoblarni belgilab chiqishadi.

5.Tekshirish: O‘qituvchi EvalBee mobil ilovasini ochib, telefon kamerasini har bir o‘quvchining javob blankasiga yo‘naltiradi. Dastur javoblarni avtomatik skanerlab, baholaydi va natijalarni darhol ko‘rsatadi.

6.Natijalarni tahlil qilish: EvalBee dasturining eng muhim afzalliklaridan biri bu baholash natijalarini batafsil statistik tahlil qilish imkoniyatidir. Bu funksiya o‘qituvchiga shunchaki ballarni ko‘rsatishdan ko‘ra chuqurroq ma’lumot beradi va o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.



2-rasm.



3-rasm

EvalBee quyidagi asosiy statistik ma’lumotlarni taqdim etadi:

Har bir o‘quvchining individual natijasi: Dastur har bir o‘quvchining to‘plagan balli, foizdagi ko‘rsatkichi va qaysi savollarga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob berganligi haqida aniq ma’lumot beradi. Bu o‘qituvchiga har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini baholash va individual yordam ko‘rsatishda muhimdir.

Sinfning umumiy natijalari: EvalBee butun sinfning o‘rtacha ballini, eng yuqori va eng past ballarni, shuningdek, natijalarning umumiy taqsimotini (masalan, grafiklar ko‘rinishida) ko‘rsatadi. Bu o‘qituvchiga sinfning umumiy bilim darajasi haqida tasavvur beradi.

Savollar bo‘yicha tahlil: Aynan shu bo‘lim o‘quvchilardagi bilim bo‘shliqlarini aniqlashda juda muhimdir. EvalBee har bir savolga qaysi foiz o‘quvchilar to‘g‘ri javob berganini va qaysi foizi xato qilganini aniqlab beradi.

Agar №5 savolga (masalan, "Kimyoviy reaksiya tezligiga ta’sir qiluvchi omillarni toping") sinfdagi o‘quvchilarning 70% dan ortig‘i noto‘g‘ri javob bergan bo‘lsa, bu o‘qituvchi uchun signaldir. Bu shuni anglatadiki: Mavzuga oid tushunmovchiliklar: Ehtimol, "Kimyoviy reaksiya tezligi va unga ta’sir qiluvchi omillar" mavzusi yaxshi tushuntirilmagan yoki o‘quvchilar tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilmagan.

O‘qitish metodikasini ko‘rib chiqish zarurati: O‘qituvchi ushbu mavzuni tushuntirishda qo‘llagan metodikasini qayta ko‘rib chiqishi, qo‘shimcha misollar, amaliy mashg‘ulotlar yoki vizual materiallardan foydalanishi kerak.

Shuningdek, dastur eng ko‘p tanlangan noto‘g‘ri javoblarni ham ko‘rsatishi mumkin (agar savolda bir nechta variant bo‘lsa). Bu o‘quvchilarning qanday noto‘g‘ri tushunchalarga ega ekanligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, agar "Katalizator" savoliga javob berishda ko‘pchilik "ingibitor" variantini belgilagan bo‘lsa, demak ular bu ikki tushunchani chalkashtirayotgan bo‘ladi.

Mavzular bo‘yicha tahlil: Agar test bir nechta mavzuni qamrab olgan bo‘lsa, EvalBee har bir mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini alohida ko‘rsatishi mumkin. Bu o‘qituvchiga butun o‘quv dasturi bo‘yicha qaysi bo‘limlar yaxshiroq o‘zlashtirilganini va qaysi mavzularda takrorlash yoki qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish zarurligini aniqlashda yordam beradi.

Xulosa.EvalBee dasturini kimyo fanini o‘qitishda baholash jarayoniga integratsiya qilish bir qator muhim afzalliklarga ega.

Birinchidan, bu baholash jarayonining tezligi va obyektivligini sezilarli darajada oshiradi, o‘qituvchining vaqtini tejaydi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarga tezkor va aniq fikr-mulohaza berish imkonini yaratadi, bu esa ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va o‘z bilimlaridagi kamchiliklarni tezda bartaraf etishga yordam beradi.

Uchinchidan, dastur taqdim etgan batafsil statistik tahlillar o‘qituvchilarga o‘quv materialining qaysi jihatlari yaxshiroq o‘zlashtirilganini va qaysi mavzularga ko‘proq e’tibor qaratish lozimligini aniqlashda yordam beradi.

Kimyo fanining o‘ziga xos murakkabligi va amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, EvalBee kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat baholash jarayonini optimallashtiradi, balki o‘qitish-o‘rganish jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarda kimyo faniga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishga va ularni kelajakda ilm-fan hamda texnologiya sohasida muvaffaqiyatli mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi. Texnologiyadan to‘g‘ri foydalanish orqali biz ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqa olamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-sonli Farmoni, unda raqamli ta’limni rivojlantirish vazifalari
2. Tolstikov V.G. Sovremennye tendensii v otsenke znaniy uchashchixsya. – M.: Prosveshchenie, 2010. (Baholashning zamonaviy tendensiyalari, test sinovlari va ularning samaradorligi haqida ma’lumot beradi.)
3. Jonassen, D. H. (2000). Computers as mindtools for schools: Engaging critical thinking with technology. Prentice Hall. (Texnologiyalarning ta’limdagi roli, jumladan, baholash vositasi sifatida qo‘llanilishi bo‘yicha umumiy nazariy asoslar.)
4. EvalBee dasturining rasmiy veb-sayti va foydalanuvchi qo‘llanmalari. Dasturning funksiyalari, qo‘llash imkoniyatlari, texnik jihatlari haqida eng to‘g‘ri va dolzarb ma’lumot manbai.)
5. Raqamli baholash va ed-tech (education technology) bo‘yicha ilmiy maqolalar:
6. Digital Assessment: Practices, Challenges and Opportunities. "Journal of Research on Technology in Education" yoki "Educational Technology & Society" jurnallarida.)
7. The Impact of Automated Assessment Tools on Student Learning and Engagement.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA ROSTGO‘YLIK VA ODOB-AHLOQ SHAKLLANTIRISH METODIKASI

N. Parmanova
Payariq tumani 39-son DMTT direktori
G. Sadullayeva
Tarbiyachi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida rostgo‘ylik va odob-ahloq ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati, metod va usullari yoritilgan. Bolalarda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni singdirishda pedagogik yondashuvlar, jumladan, Reggio Emilia metodikasi, suhbat, rolli o‘yin va hikoya tahlilidan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida rostgo‘ylik va odob-ahloq ko‘nikmalarini rivojlantirish bolalarning shaxsiy sifatlari va jamoadagi o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil ekanligi aniqlangan.

KALIT SO‘ZLAR

maktabga tayyorlov guruhi, rostgo‘ylik, odob-ahloq, axloqiy tarbiya, Reggio Emilia, ijtimoiy kompetensiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены значение, методы и приемы формирования навыков честности и нравственности у воспитанников подготовительной группы к школе. Проанализирована эффективность педагогических подходов в воспитании социально-нравственных ценностей у детей, в том числе использования методики Реджио Эмилия, беседы, ролевой игры и анализа рассказа. По результатам исследования установлено, что развитие навыков честности и этикета является основным фактором, положительно

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Подготовительная группа к школе, честность, этика, нравственное воспитание, Реджио Эмилия, социальная компетентность.

влияющим на личностные качества детей и их место в коллективе.

ABSTRACT

This article highlights the importance, methods, and techniques of forming honesty and moral skills in students of pre-school groups. The effectiveness of pedagogical approaches in instilling socio-moral values in children, including the use of the Reggio Emilia method, conversation, role-playing games, and story analysis, was analyzed. As a result of the study, it was established that the development of honesty and ethical skills is the main factor that positively influences the personal qualities of children and their place in society.

KEYWORDS

Pre-school group, honesty, etiquette, moral education, Reggio Emilia, social competence.

Kirish

Bola shaxsini maktab ta’limiga tayyorlash jarayonida uning bilim, malaka va koʻnikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, axloqiy sifatlarni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Rostgoʻylik va odob-ahloq koʻnikmalari bolada erta yoshdan boshlab tarbiyalanishi lozim boʻlgan shaxsiy fazilatlardandir. Psixologlar fikricha, 6–7 yosh davrida bola ijtimoiy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qila boshlaydi va oʻz xatti-harakatlarini shu qadriyatlarga moslashtirish qobiliyatiga ega boʻladi. Shu bois, maktabga tayyorlov guruhida axloqiy tarbiya jarayoni maqsadli, tizimli va interfaol metodlarga asoslangan boʻlishi zarur.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar (A.V. Mudrik, J. Piajé, L.S. Vygotskiy) shuni koʻrsatadiki, axloqiy tarbiya jarayonida kattalar namunasi, tengdoshlar bilan muloqot va oʻz faoliyatini baholash imkoniyati yetakchi omillar hisoblanadi. Oʻzbek pedagog olimlari (S. Nishonova, N. Xoʻjayev) ishlarida esa bolalarda rostgoʻylikni shakllantirish oʻyin faoliyati, hikoya va ertaklar tahlili orqali samarali kechishi ta’kidlanadi.

Reggio Emilia yondashuvi bolalarning shaxsiy tajribasiga tayanib, ularni erkin fikr bildirish va tanlov qilishga oʻrgatadi, bu esa rostgoʻylik va odob-ahloq kabi fazilatlarni tabiiy shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari

1. Rostgoʻylik tushunchasi va uning bolalar hayotidagi oʻrni

Rostgo‘ylik – bu haqiqatni aytish, yolg‘on gapirmaslik, o‘z xatti-harakatiga mas’ul bo‘lish fazilati. Bolalar uchun rostgo‘ylik — kattalar ishonchini qozonish va tengdoshlar orasida obro‘ topishning eng muhim vositasidir.

2. Odob-ahloq ko‘nikmalari va ularning tarkibiy qismlari

Odob-ahloq: salomlashish, muloyim gapirish, boshqalarga hurmat ko‘rsatish, navbat kutish, yordam berish, kechirim so‘rash va minnatdorchilik bildirish kabi odatlar majmuasidan iborat.

3. Rivojlantirish usullari

Hikoya va ertaklar tahlili (masalan, “Rostgo‘y bola” hikoyasi) — bola rostgo‘ylikning oqibatlarini tushunadi.

Rolli o‘yinlar — “Do‘konda xarid”, “Mehmon keldi”, “Yo‘qotilgan o‘yinchoq” kabi vaziyatlarda rost gapirish va odobli muomala qilishga o‘rgatish.

Interfaol o‘yinlar — “Rostmi, yolg‘onmi?”, “Odobli so‘zlar zanjiri”.

Kattalar namunasi — tarbiyachining o‘zi rostgo‘y va odobli bo‘lishi, bolalar esa unga ergashadi.

4. Reggio Emilia yondashuvining ustunliklari

Bola markazida bo‘lgan ta’lim muhiti

Erkin fikr bildirish va qaror qabul qilishga imkoniyat

Haqiqatni aytish va o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish

Natijalar

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, 2 oy davomida haftasiga 2 marta interfaol metodlar qo‘llanilganda bolalarda:

Rost gapirish odati 27% dan 68% gacha oshdi

Odobli so‘z ishlatish holatlari 40% dan 75% gacha ko‘tarildi

Guruh ichida kelishmovchiliklar soni kamaydi

Xulosa va tavsiyalar

Maktabga tayyorlov guruhida rostgo‘ylik va odob-ahloq ko‘nikmalarini rivojlantirish bolalarni nafaqat maktab hayotiga, balki kelajakdagi ijtimoiy faoliyatiga ham tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mudrik A.V. Sotsialnaya pedagogika. — M.: Akademiya, 2000.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. — M., 1984.
3. Nishonova S. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi. — T.: O‘qituvchi, 2012.
4. Malaguzzi L. The Hundred Languages of Children. — Reggio Emilia, 1993.
5. Xo‘jayev N. Axloqiy tarbiya asoslari. — T., 2017.

MUNDARIJA

1 **Abdinazarova Zamira Xudaybergenovna**
TALABALAR AQLIY TARAQQIYOTIGA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING RIVOJLANTIRUVCHI TA'SIRINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI.... 3

2 **Abdullayeva Charos Abdullo qizi**
ASOSIY STAVKANING TIJORAT BANKLARI KREDITLARI QIYMATINING KO'RSATKICHI SIFATIDAGI ROLINING USLUBIY JIHATI..... 12

3 **Abdurayimov Kamollidin Xurram o'g'li**
QISHLOQ XO'JALIGI MAXSULOTLARINI ETISHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARINING STATISTIK TAHLILI..... 18

4 **Abidova Dilfuza Muratdjanovna**
SMART TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA INFORMATIKA TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH: METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA AMALIY NATIJALAR…….. 38

5 **Davronov Avazbek Artiqboyevich**
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS AN INNOVATIVE PEDOGOGICAL TOOL IN MODERN EDUCATIONAL CONTEXT……. 44

6 **Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich**
TALABALARNING FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 49

7 **Дустмуродов Маъруфжон Мансур ўғли**
УЙҒУР ХОҚОНЛИГИ ДАВРИ ЁДНОМАЛАРИ ТУРКУМИДАН: ТЭС(ИЙН) БИТИГИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР..... 56

8 **Ergashova Nilufar Sobirovna**
TIJORAT BANKLARINING INVESTISION KREDIT QO'YILMALARI HAJMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR…… 72

9 **M.R. Isxakova**
PEDAGOGLARNI YOSHI KATTALARGA XOS O'QUV EHTIYOJLARI, MOTIVATSIYASI VA TAJRIBASI ASOSIDA SAMARALI KASBIY RIVOJLANISH STRATEGIYALARI..... 80

10 **Менгнаров Холмурат Эргашович**
СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИНАМИКИ КОЛИЧЕСТВА ОВЕЦ И КОЗ В УЗБЕКИСТАНЕ..... 89

11 **Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi**
NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING AMALIY USULLARI..... 99

12 **Oblaqulova Sitora Olim qizi**
TURIZMDA INNOVATSION XIZMATLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI……. 107

13 **Qodirov Hamidullo Madaminjonovich**
AHOLI ZICH YASHAYDIGAN HUDUDLARDA ADIR EKOTIZIMLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY QARASHLARI..... 117

14 **Rahmatullayeva Madina Fatxullayevna, Sabirova Zebo Baxramovna**
GENDER IN ENGLISH LANGUAGE: HOW ‘HE’, ‘SHE’, AND ‘THEY’ ARE CHANGING……. 128

15 **Рахимова С., Махмудова С.**
ВОСПИТАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ОТЗЫВЧИВОСТИ У ДОШКОЛЬНИКОВ КАК ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА..... 134

16 **Саттикулов Музаффар, Уринбаев Сагинбай Куатбаевич**
АКТУАЛЬНОСТЬ И АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ОСНОВ НАНОТЕХНОЛОГИЙ..... 142

17 **Xurshidbekov Abbosbek Murodbek o‘g‘li**
THE ROLE AND IMPORTANCE OF WRESTLING IN THE EDUCATION OF YOUTH……... 150

18 **Халикова Ш.Т.**
КЎЗИ ОЖИЗ МАКТАБ-ИНТЕРНАТ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ МУВАФФАҚИЯТЛИ ИЖТИМОИЙЛАШУВИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР..... 156

19 **Abdullayev Akmal Amirovich, Ismatullayeva Zebo Nurillo qizi**
O‘ZBEK MILLIY OG‘ZAKI NUTQIDA JOY NOMLARI BILAN BOG‘LIQ FRAZEMALAR TOPOMORFIZMLAR SIFATIDA..... 162

20 **Вайс Элиз Юсуфовна, Рахимова С.А.**
СОВРЕМЕННЫЕ УСЛОВИЯ ПРОБЛЕМ ВОСПИТАНИЯ И РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА..... 171

21 **Адилбеков А.А.**
ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА КИЧИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИ ЎРНИ..... 179

22 **Temirov Farrux Faxridinovich**
KIMYO FANINI O‘QITISHDA BAHOLASHNING YANGI METODI: EVALBEE DASTURI MISOLIDA..... 192

23 **Parmanova N., Sadullayeva G.**
MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA ROSTGO‘YLIK VA ODOB-AHLOQ SHAKLLANTIRISH METODIKASI..... 199

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY-METODIK JURNALI №2 (2025)

Published: 31.07.2025. Font: Times New Roman

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Feruza ko‘chasi,
https://tipi-journal.uz
e-mail: TIPI_info@mail.ru